

# IXTISOSLIK FANLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI



- ❖ O‘zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “Cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishi
- ❖ p.f.n., dots. Axmedov Ma‘rufjon

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan  
tasdiqlangan  
o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** O‘zDK “Musika pedagogikasi” kafedrasi mudiri,  
p.f.n., dotsent Axmedov Ma’rufjon

**Taqrizchilar:** Tigran Shiganyan – Flint musika instituti  
san’atshunoslik fanlari doktori, (AQSH).

B.Lutfullayev – O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi  
professori.

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan  
nashrga tavsiya qilingan (2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnoma)

## MUNDARIJA

<b>I.</b>	<b>ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II.</b>	<b>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>III.</b>	<b>NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>20</b>
<b>IV.</b>	<b>AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>73</b>
<b>V.</b>	<b>KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>93</b>
<b>VI.</b>	<b>KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>96</b>
<b>VII.</b>	<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>102</b>
<b>VIII.</b>	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>107</b>
<b>IX.</b>	<b>TAQRIZLAR.....</b>	<b>111</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**“Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” modulining maqsadi:**

Pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

**“Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” modulining vazifalari:**

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;
- o'quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

“**Ixtisoslik fanlarini o'qitishning zamonaviy metodikasi**” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- fanlarni o'qitishdagi ilg'or xorijiy tajribalarni;
- yangi ilmiy natijalar, yaratilgan ilmiy adabiyotlarni;
- respublika va xorijda “Musiqqa san'ati” yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalarini;
- o'quv va elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanish metodikasini;
- dars texnologik xaritasini ishlab chiqishni;
- adabiyotlar tahlili, ta'lim jarayoniga tadbiq etish masalalarini;
- ijrochilik turlarini o'zlashtirishning uslubiy asoslarini;
- yakka va jamoaviy ijroning rivojlanish tendensiyalarini;
- zamonaviy talablarda mashg'ulotlarni tashkil qilishning ilmiy va amaliy asoslarini;
- fanlarini o'qitishda so'nggi yillarda erishilgan yutuqlarni;
- san'at sohasidagi ta'lim mazmuni uzviyligi va integratsiyasini ta'minlashda novatorlik va an'anaviylik mezonlarini;
- san'atidagi zamonaviy yo'nalish va uslublar hamda tendensiyalarni **bilishi** lozim.
- san'at yo'nalishi bo'yicha yangi elektron o'quv adabiyotlarni yaratish va ulardan foydalanish;
- san'at yo'nalishi bo'yicha xorijiy tildagi manbalardan foydalana olish;
- an'anaviy o'qitish uslublarini zamonaviylashtirish;
- ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalardan foydalanish;
- modernizatsiya va o'zgarishlarni o'zlashtirgan holda uning mazmun-mohiyatini talabalarga yetkazish;

- fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- musiqa san‘ati ta‘limida audio va video yozuvlarini yaratish va qo‘llash;
- musiqiy asarlarni o‘zlashtirishda an‘anaviy va zamonaviy uslublarni qo‘llash;
- musiqa san‘ati fanlarini o‘qitishda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;
- musiqa ijrochiligida zamonaviy uslublarni va jahon tajribasidan samarali foydalanish;
- yakka tartibda, jamoalar bilan ishlashda ijro malakalarini o‘stirish;
- guruhli va yakka tartibdagi mashg‘ulotlarni tashkil etish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.
- musiqa sohasida mashg‘ulotlarni yuqori saviyada tashkil etish;
- mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish va boshqarish;
- guruhli va yakka tartibdagi mashg‘ulotlar uchun tegishli fanlar bo‘yicha modullarni ishlab chiqish va modul tizimi asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- musiqa san‘ati sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Modul tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar**

“**Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi**” moduli hozirgi kunda ta‘limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, shuningdek an‘anaviy va zamonaviy dirijyorlik asarlaridan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, ijrochilik malakalarini shakllantirish va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Ijrochilik san‘atida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros”, “Cholg‘u ijrochiligida innovatsion yondashuvlar” “Ijro san‘ati marketingi strategiyalari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta’lim muassasalarida nomoddiy madaniy merosning o‘rganilishini ta’minlash, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo‘llash va talabalar bilimni baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Jami	nazariy	amaliy	ko‘chma
1.	Ta’lim jarayonining tuzilmasi. Mashg‘ulot turlari, shakllari. Musiqa fanlari o‘qitilishida zamonaviy yondashuvlar.	2	2		
2.	Ochiq darslarni o‘tkazish va darslarni tahlil qilish metodikasi. Darslik va elektron darslik hamda o‘quv va elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish metodikasi.	2	2		
3.	Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta’lim jarayoniga tadbiiq etish masalalari.	2			2
4.	Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va modul asosida darslarni tashkil etish uslubiyoti.	2		2	
5.	Musiqa fanlarini o‘qitishda “Ustoz-shogird” an‘analari. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi.	8		2	4
6.	“Musiqa san’ati” fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.	4		2	
<b>Jami:</b>		<b>16</b>	<b>4</b>	<b>6</b>	<b>6</b>



## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu: Ta’lim jarayonining tuzilmasi. Mashg‘ulot turlari, shakllari. Musiqqa fanlari o‘qitilishida zamonaviy yondashuvlar. (2 soat)**

Ta’lim jarayonining tuzilmasi. Mashg‘ulot turlari, shakllari. Musiqqa fanlari o‘qitilishida zamonaviy yondashuvlar. Uzluksiz musiqa ta’limi tuzilmasi va xususiyatlari. Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar. “Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” fanining maqsadi va vazifalari. Musiqqa san’ati fanlarining o‘ziga xos jihatlari. xorijiy tajribalar asosida darslarni tashkil etish uslublari.

### **2-mavzu: Ochiq darslarni o‘tkazish va darslarni tahlil qilish metodikasi. Darslik va elektron darslik hamda o‘quv va elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish metodikasi. (2 soat)**

Ochiq darslarni o‘tkazish va darslarni tahlil qilish metodikasi. Darslik va elektron darslik hamda o‘quv va elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish metodikasi. Musiqqa fanlarini o‘qitishda “Ustoz-shogird” an’analari. Musiqqa san’ati fanlarini o‘qitishda ta’lim metodlari va vositalari. Ochiq darslarni o‘tkazish va darslarni tahlil qilish. Darslik va elektron darslik hamda o‘quv va elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish metodikasi

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Ma’ruzadan so‘ng rejalashtirilgan dastlabki to‘rt mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ma’ruza mashg‘ulotining mavzusi asosida tashkil etiladi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda, shuningdek pedagog tomonidan taklif etilgan yo‘nalish bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriq yozma, savol-javob tarzida yoki amaliy ijro yoki boshqa shaklda bajarilishi mumkin.

Nazariy ta’lim rejalashtirilmagan amaliy mashg‘ulotlar quyida keltirilgan rejalar asosida tashkil etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga bo‘lgan munosabatini yozma, og‘zaki javob yoki amaliy ijro ko‘rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko‘zda tutilgan. Amaliy mashg‘ulotlardagi rejalashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo‘shimcha vositalar, shuningdek orkestr yoki xor jamoalari bilan amaliy ishlash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

### **1-amaliy mashg‘ulot: Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va modul asosida darslarni tashkil etish uslubiyoti. (2 soat)**

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va modul asosida darslarni tashkil etish uslubiyoti. Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi sifatida. Darslik va elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish metodlari. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish.

**2- amaliy mashg'ulot: Musiqa fanlarini o'qitishda "Ustoz-shogird" an'analari. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi. (2 soat)**

Musiqa fanlarini o'qitishda "Ustoz-shogird" an'analari. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi. Tinglovchilar tomonidan nomoddiy madaniy meros muhofazasi borasida qabul qilingan qonunlar taqqoslanadi, ularning takomillashuv jarayoni tahlil etiladi, O'zbekistonda qabul qilingan qonunlarning Konvensiya maqsadlariga mos kelishi va undagi ziddiyatlar o'rganiladi, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Buning uchun tinglovchilar mustaqil ravishda xorijiy adabiyotlar va internetdan qo'shimcha ma'lumotlar to'playdilar hamda mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

**3- amaliy mashg'ulot: "Musiqa san'ati" fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. (2 soat)**

"Musiqa san'ati" fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar orasida innovatsion pedagogik texnologiyalari turlari bo'linadi va har bitta tinglovchi o'z tegishli sohasi bo'yicha o'z ma'lumotlarini taqdimot (prezentatsiya) ko'rinishida taqdim etadi. Tinglovchilar tomonidan o'z sohasiga oid bo'lgan pedagogik texnologiyalar turlari muhokama etiladi va to'ldiriladi.

**KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-ko'chma mashg'ulot: Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta'lim jarayoniga tadbqiq etish masalalari. (2 soat)**

Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta'lim jarayoniga tadbqiq etish masalalari. Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar bilan ijro san'ati sohasi tashkilotiga tashrif buyuriladi. Muayyan tashkilotning xarajatlari va daromadlari o'rganiladi. Olingan ma'lumotlarga qarab, tinglovchilar narx belgilash maqsad va strategiyalari taklifini birgalikda ishlab chiqadilar.

## **2-ko'chma mashg'ulot: Musiqa fanlarini o'qitishda "Ustoz-shogird" an'analari. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi. (4 soat)**

Musiqa fanlarini o'qitishda "Ustoz-shogird" an'analari. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi. Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta'lim jarayoniga tadbiq etish masalalari. Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar bilan ijro san'ati sohasi tashkilotiga tashrif buyuriladi. Muayyan tashkilotning xarajatlari va daromadlari o'rganiladi. Olingan ma'lumotlarga qarab, tinglovchilar narx belgilash maqsad va strategiyalari taklifini birgalikda ishlab chiqadilar.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko'chma mashg'ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

**II. MODULNI O‘QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL  
TA’LIM METODLARI**

**Aqliy hujum** (breynstroming-aqllar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

### Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish uchun guruhlashtirish mumkin.
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

**Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan ta’lim oluvchiga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma’lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Ta’lim metodi va ta’lim texnologiyasi				
Ta’limda interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari				
Ta’lim va tarbiyani tashkil etish shakllari				
Pedagogik texnologiyalarning xususiyatlari				
Pedagogik texnologiya turlari				
Pedagogik texnologiyaning rivojlanish nazariyasi				

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi				
--	--	--	--	--

### "Qarama-qarshi munosabat" metodi

Metod o'z mohiyatiga qo'ra o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;
- ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;
- tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo'lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;
- jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo'lgan, 2-ustuniga muhim bo'lmagan tushunchalar yoziladi;
- kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;
- jamoaning umumiy fikriga ko'ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.


### "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" metodi

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

- 1) har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi;
- 2) guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

17-shakl



Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:

1. Talabalarning o‘rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.
2. Talabalarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi.
3. Talabalarni mavzuga oid ma‘lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.  
Bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarning to‘liq tafsiloti quyidagicha:
  - Talabalar guruhlariga biriktiriladi;
  - Talabalarning yangi mavzuga bo‘yicha tushunchalarga egalik darajasi o‘rganiladi;
  - Talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyiha 1-bandiga yozib boriladi;
  - Talabalarning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarni boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyiha 2-bandiga yozib qo‘yiladi;
  - o‘qituvchi Talabalarni yangi mavzuga oid umumiy ma‘lumotlar bilan tanishtiradi;
  - Talabalar o‘zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
  - bayon etilgan yangi tushunchalar loyiha 3-bandiga yozib qo‘yiladi;
  - mashg‘ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.

### **Keys -stadi metodi.**

*Keys-stadi* (inglizcha sase - to‘plam, aniq vaziyat, stadi -ta‘lim) keysda bayon qilingan va ta‘lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun‘iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta‘lim uslubidir.

Keys – bu real xayotning «bir bo‘lagi» (ingliz terminalogiyasida TRUE LIFE).

Keys – faqat vaziyatni to‘g‘ri yoritish emas, balki vaziyatni tushuntirish va baholashga imkon beradigan yagona ma‘lumot kompleksi.

Keysda aks etgan vaziyat, bu real yoki sun‘iy hodisani institusional tizimda ma‘lum vaqtda hayotda yuzaga kelishini aks ettiradi.

Keysda bayon qilingan vaziyat institusional tizimda (shu o‘rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun‘iy qurilgan hodisalarning ideal tarzda in‘ikosidan iboratdir.

Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat subyekting hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Muammoli vaziyat. Bunda subyektni hozirgi sharoitda yoki kelgusida maqsadiga erishishiga xavf tug‘diruvchi vaziyat tushuniladi

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### “VEYER” texnologiyasi.

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “VEYER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEYER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:



- boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosiylarini anglab yetish;
- yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo‘yicha dalildan natajaga kelish.

### **FSMU texnologiyasi.**

**(F)** - fikringizni bayon eting.

**(S)** - sababini ko‘rsating.

**(M)** - misol (dalil) keltiring.

**(U)** - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

#### **1-bosqich.**

-o‘qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi:

-mashg‘ulot davomida har bir talaba o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

#### **2- bosqich.**

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'latadi.

### **3 - bosqich.**

-Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, O'qituvchi ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi:

-o'qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi:

-o'qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

### **4 - bosqich.**

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a'zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

### **5- bosqich.**

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: Guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlash ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

### **6 - bosqich.**

-o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo'llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-mavzu: Ta'lim jarayonining tuzilmasi. Mashg'ulot turlari, shakllari. Musiqa fanlari o'qitilishida zamonaviy yondashuvlar (2 soat).

##### Reja:

1.1. Ta'lim jarayonining tuzilmasi. Mashg'ulot turlari, shakllari. Musiqa fanlari o'qitilishida zamonaviy yondashuvlar.

1.2. Uzluksiz musiqa ta'limi tuzilmasi va xususiyatlari. Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar.

1.3. "Ixtisoslik fanlarini o'qitishning zamonaviy metodikasi" fanining maqsadi va vazifalari.

1.4. Musiqa san'ati fanlarining o'ziga xos jihatlari. xorijiy tajribalar asosida darslarni tashkil etish uslublari.

*Tayanch so'zlar: Tyuter, edvayzer, fasilitator, moderator, supervizor, superviziya, modulli texnologiyalar, modul, modul dastur, o'quv moduli, instrumental kompetensiyalar, kommunikativ kompetentlik, tizimli kompetentlik.*

#### 1.1. Ta'lim jarayonining tuzilmasi. Mashg'ulot turlari, shakllari. Musiqa fanlari o'qitilishida zamonaviy yondashuvlar.

Musiqa fanlari mashg'ulotlari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar musiqa fanlari o'qituvchisi hamda talaba tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari-mashg'ulotlar mazmunining metodlari va mashg'ulotlarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqa mashg'ulotlari (darslari) mazmuni va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Yuqoridagi qayd etilgan umumdidaktik prinsiplari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqa mashg'ulotlarini davlat ta'lim standartiga muvofiq milliy xususiyatlarini asos qilib musiqa faoliyati izchilligini ta'minlaydi.

Musiqa fanlari mashg'ulotlarining didaktik prinsiplari bir necha turdan iborat:

##### 1. *Musiqa fanlari ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi.*

Musiqa ta'limi fanlari va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir mashg'ulotlarda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doyrasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar,

xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish - musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir.

Ilmiylikni, tizimliliksiz amalga oshirish qiyin. Mashg'ulot (dars)larning barcha o'quv faoliyatini hamda keyingi mashg'ulot (dars)larning o'zaro mantiqiy bog'lanishi tizimlilik asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab o'zlashtirib borish prinsiplari muayyan tartibga mos bo'lib, tizimlilik demakdir. Mashg'ulotlarning har bir faoliyati o'z navbatida, har bir mashg'ulot, darslarning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni tobora amalga oshirishi davomiylik prinsipi demakdir.

Musiqa darslarida musiqiy bilimlarni o'zlashtirish mukammal o'ylangan va asoslangan tizim bo'yicha o'tilishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Beriladigan bilimlar soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lmog'i darkor. Ushbu prinsipning buzilishi bolalarning o'quv materialini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning musiqa madaniyati mashg'ulot (dars)lariga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Musiqiy bilimlarni tushuntirishda musiqa rahbari (o'qituvchisi), avvalo, o'tilgan mavzularga tayanmog'i lozim. Musiqa savodi, jumladan, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solingan bo'lmog'i kerak. Yangi tushuncha va bilimlar avval o'zlashtirilgan bilimlarga asoslangan bo'lishi, asta-sekin kengaytirilib va chuqurlashtirib borilishi lozim.

E.B.Abdullin:-«...Musiqiy ta'limning mohiyati, maqsad va vazifalari, yo'nalishi, mazmun va jarayonining harakterini ochib berishda prinsiplar asosiy o'rin egallaydi», deydi. U musiqiy ta'limdagi bir nechta prinsiplarni yo'nalishlarga ajratadi:

1. Falsafiy-estetik yo'nalish (... Musiqiy ta'lim da insonparvarlik qarashi; bola shaxsini san'at bilan muloqotda o'z-o'zini baholashi...).
2. Musiqashunoslik yo'nalishi (... xalq, milliy va zamonaviy musiqa birligiga tayanish; musiqa janrlari va ularning hayot bilan bog'liqligiga tayanish; tinglash, ijro etish, ijod etish faoliyat asosi sifatida...).
3. Badiiy-psixologik yo'nalish (... Musiqiy ta'limda ong va tafakkur birligiga tayanish...).
4. Badiiy-didaktik yo'nalish (... Musiqiy ta'lim -tarbiya birligi, izchillik va tizimlilik, ilmiylik, musiqiy ta'lim natijalari mustahkamligi...).
5. Musiqiy pedagogik yo'nalish (... obrazlilik va butunlik, musiqiy-pedagogik maqsad va vositalar aloqadorligi, badiiylik va texnologiya birligi...)

Oliy musiqa ta'limi mazmunida ixtisoslik o'quv predmetlarining vazifasi tanlangan kasb va ixtisosliklar bo'yicha zarur va yetarli darajadagi bilim, xatti-harakat usullari (ko'nikma va malakalar) va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish masalalari nazarda tutiladi. Mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish, talabalarning

mustaqil ishlarini hamda o‘quv predmeti bo‘yicha to‘g‘arak ishlarini tashkil etish va meyorlash, tahsil oluvchilarning faol o‘quv-bilish faoliyatlarini ta‘minlash yo‘llarini aniqlash, ta‘lim-tarbiya metodlarini tanlab amalga joriy etish, o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlab, baholash kabi masalalarda metodika o‘quv predmeti mansub bo‘lgan fanga nisbatan ko‘proq didaktika va pedagogik psixologiyaga tayanadi. Lekin, ta‘limning quyidagi muhim bir masalasi mavjud-ki, bir tomondan, eng avvalo, metodika o‘zi tegishli fanga, ikkinchi tomondan pedagogik psixologiyaga tayanadi. Bunda so‘z o‘quv predmetining asosini tashkil etuvchi tushuncha (ibora)lar va nazariy konsepsiyalarni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari haqida bormoqda: cholg‘u ijrochiligi, xonandalik, solfedjio, garmoniya, musiqiy asarlar tahlili ... kabilar.

Prezidentimizning 2011 yil 20 maydagi «Oliy ta‘lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori Oliy ta‘lim muassasalarini modernizatsiyalash, ularning zamonaviy o‘quv va ilmiy laboratoriya jihozlari bilan ta‘minlash, ta‘lim jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda o‘qitish shakllarini joriy etish, o‘qituvchi kadrlar mehnatini rag‘batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiy soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma‘lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadlarini qamrab olgan.

Har bir jamiyatning rivojlanishida ta‘lim tizimining rivojlanishi eng muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, rivojlangan jamiyat qurish yo‘lidagi ustozlarning say harakatlari ham ta‘lim tizimining sifat bosqichini yuqori saviyada bosib o‘tib, ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ta‘lim jarayoni jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda asosiy mazmun beruvchi yana bir tizim “Ustoz-shogird” tizimidir. Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi, ishonch-e‘tiqodli shogirdlarni tarbiyalashda va zamon talabiga mos kadrlar yetkazib berishda bu tizim alohida o‘ringa egadir.

“Biz oldimizga qanday vazifa qo‘ymaylik, qanday vazifani yechish zaruriyati tug‘ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi, o‘rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlarni tayyorlashga bog‘liqdir” — degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Darhaqiqat, har bir mashg‘ulot mazmunining kengligi va chuqurligi uning davlat talablariga muvofiqligi, shogirdlarning ta‘lim texnologiyalari va metodikaning to‘g‘ri usulini tanlashi va undan unumli foydalanishni talab etadi. Fikrimizdan kelib chiqqan holda, ustoz — shogird tizimi samaradorligining ortib borishini jadallashtirish zarur. Bu samaradorlikni esa, ustoz-shogird tizimida tnnovatsion ta‘lim texnologiyalari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, shogird ustozidan o‘zadi, degan xalq iborasi ham bejiz emas, albatta.

**Mashg‘ulot turlari, shakllari.** Keyingi vaqtlarda modulli ta‘lim tizimida kompleks yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilmoqda. Bugungi kunda aralash ta‘lim innovatsiya sifatida kirib kelmoqda.

Deklan Bern "blended learning" (aralash ta‘lim) haqida shunday deydi-ushbu ta‘lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli metodikalardan foydalanishni, ta‘limni tashkil etishda va ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalari, individual va guruhlarda an‘anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala tanlangan metodikalarning o‘zaro muttanosibligini ta‘minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Aralash ta‘lim ko‘proq treninglarni tashkil etishni talab etadi. Treninglarni tashkil etishda quyidagi bosqichlarga e‘tibor qaratish lozim:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Maqsadlarni aniqlab olish bosqichi.
3. Treningni o‘tkazish bosqichi.

Bugungi kunda blended learning ta‘limi deganda kunduzgi an‘anaviy ta‘lim va masofaviy ta‘limning elementlarini kombinatsiyasi ham tushunilmoqda. Bu tizimda o‘qituvchi ta‘lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalandi. Aytish joizki, axborot texnologiyalarining ta‘lim tizimidagi ahamiyati be‘qiyos, tobora uning yangi ko‘rinishlari taklif etilmoqda. Ta‘lim tizimiga ushbu texnologiyalarning kirib kelishi tarixiga nazar tashlasak.

XVIII asr oxirida Yevropada, muntazam ravishda faoliyat ko‘rsatuvchi va ko‘pchilik aholi uchun imkoniyatli bo‘lgan pochta aloqasining joriy qilinishi natijasida "korrespondentlik o‘quvi" paydo bo‘ldi. Talabalar pochta orqali o‘quv materiallari olar va o‘qituvchilar bilan yozma aloqa olib borardilar hamda ilmiy ish shaklida yoki ishonch bildirilgan shaxsga imtihon topshirardilar. Rossiyada bunday shakl XIX asr oxirida paydo bo‘ldi. XX asr boshi texnologiyalarning jo‘shqin rivojlanishi radio va televideniyaning paydo bo‘lishi masofaviy o‘qitish usullariga yangi o‘zgarishlar kiritdi. Bunday texnologiyalarning kirib kelishi jamiyat hayotining keskin o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, talabalar auditoriyasi bir necha yuz barobar oshib ketdi. XX asrning 50-yillaridan o‘quv-teleko‘rsatuvlar tashkil qilina boshladi. Biroq televideniye va radioda olib borilayotgan bunday o‘quv mashg‘ulotlarining jiddiy kamchiligi mavjud edi, ya‘ni talabada qaytaruv aloqa olish imkoniyatlari mavjud emas edi. 1969 yil Buyuk Britaniyada jahonda birinchi bo‘lib masofaviy ta‘lim universiteti ochildi. Universitet "Buyuk Britaniya ochiq universiteti" deb nomlandi. Uning bunday nomlanishining sababi, mashg‘ulot



auditoriyalariga tez-tez borish zaruriyati bo‘lmagan hollarda, yuqori bo‘lmagan haq hisobiga masofaviy bilim olish imkoniyatlarini ochish edi.

Xorijiy mamlakatlarda masofaviy o‘qitish dasturlari asosida faoliyat yurituvchi mashhur universitetlar vujudga keldi. Jumladan, University of South Africa 1946. Fern Universitat in Hagen (Germaniya, 1974). Milliy texnologiya universiteti AQSH 1984 (injener mutaxassisligi bo‘yicha dasturlar asosida masofaviy mashg‘ulotlar olib boriladi)), Xagen ochiquniversiteti (Germaniya), INTEC kollejKeyptaun (YUAR), Ispaniya masofaviy o‘qitish milliy universiteti, Britaniya ochiq universitetining ochiq biznes maktabi, Avstraliya hududiy axborot tarmog‘i va hokazolar. Masofadan o‘qitish ta‘limining ommaviylashuvida Internet (“on-line”)ning roli, telekommunikatsiyalarning o‘rni, barcha insonlarning Internetga barobar ochiq tashrifi uchun yo‘lak WWW (Web) texnologiyasini yaratgan olim Tim Berners Lining xizmati beqiyosdir. Hozirgi kunda masofaviy ta‘lim AQShda mukammal shakllangan bo‘lib, uning vujudga kelishi 1970-yillar oxiriga borib taqaladi. Dunyoda interaktiv ta‘lim olishning ko‘plab bazalari vujudga kelyapti. Jumladan, Britaniya ochiq universitetiga qarashli masofaviy ta‘lim umumjahon markazining ma‘lumotlar bazasini misol qilib keltirish mumkin. Distant uslubida Xalqaro Kengash faoliyat ko‘rsatyapti, “D – Learning” – masofaviy ta‘lim olayotgan tinglovchilarning soni tobora ortib boryapti. O‘tgan asrning 80-yillari oxirida shaxsiy kompyuter imkoniyatlarining oshishi o‘qitish tizimini soddalashtirish va avtomatlashtirish bilan bog‘liq yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Kompyuter o‘rgatuvchi dasturlar har xil o‘yinlar shaklida paydo bo‘ldi.

XXI asr kompyuterlari va Internet masofaviy o‘qitishning tezkorlik va soddalashtirilgan tartibda keng tarqalishiga imkon berdi. Internet radio va televideniyeiga nisbatan juda katta siljishlarga olib keldi. Har qanday talaba bilan u qayerda joylashganligidan qat‘i nazar muloqotga kirishish va qaytaruv aloqaga kirishish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Tezkor internetning tarqalishi o‘qish uchun "onlayn" seminar tizimiga o‘tish imkonini berdi va natijada masofaviy o‘qitish tizimi vujudga keldi. Masofaviy o‘qitish jarayonida tinglovchilarning hamma vaqt auditoriyada bo‘lishi talab qilinmaydi. Masofaviy o‘qitishni amalga oshiruvchi ko‘pchilik o‘quv muassasalarida umumiy mashg‘ulotlar o‘tkazib kelinmoqda, ayrim holatlarda ular kechki vaqt yoki dam olish kunlari o‘tkaziladi. Bunday mashg‘ulotlarda tinglovchilarning qatnashishi shart emas, biroq tinglovchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ularning bunday mashg‘ulotlarda ishtirok etishi juda foydali hisoblanadi.

Masofaviy o‘qish ta‘lim berishda ikki asosiy yondashishni izohlab beradi – bular kengaytirish va transformatsiya modellaridir. Kengaytirish modelida o‘qitish texnologiyasi hozirgi an‘anaviy usuldan deyarli farq

qilmaydi. Transformatsiya modeli o'qituvchi va tinglovchi hamkorligi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini o'zida mujassam qiladi.

Bugun masofaviy ta'limning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi balki, ular bilan muloqatga kirishish (og'zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i asosida tashkil etiluvchi ta'lim ham subyekt-subyekt paradigmasiga o'tmoqda.

Talabalarning mustaqil faoliyatini samarali bo'lishi uchun pedagogdan turli xildagi maslahatlar tizimi talab qilinadi. Shu sababli pedagogik usullarning zamonaviy yondashuvlar ko'rinishidagi turlari takomillashib bordi va bugungi kunda pedagogik faoliyatiga ko'ra bir qancha tushunchalar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

***Musiqa fanlari o'qitilishida zamonaviy yondashuvlar haqida gap ketadigan bo'lsa, biz qo'yidagilarga e'tibor qaratishimiz zarur***

Musiqa san'ati fanlarini o'qitishni zamonaviy innovatsiyalarni qo'llashsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

**Innovatsiya** (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin **innovatsiya** deganda *muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.*

Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiyezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: *yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.*

**Birinchi yondashuvda** hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

**Ikkinchi yondashuvda** alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashdir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar.

Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. *Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.*

2. *Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.*

3. *Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.*
4. *Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.*
5. *Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.*
6. *Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.*

V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

**Birinchi shaklga** yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

**Ikkinchi shaklga** yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

**Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.**

**Xususiy yangilik** V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi **shartli yangilik** hisoblanadi.

**Mahalliy yangilik** konkret obyektida yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

**Subyektiv yangilik** ma'lum obyekt uchun obyektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

V.I. Zagvyazinskiy **yangi** tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi **yangi** bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova **pedagogik yangilikka** o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi

nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova *innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi:*

**Birinchi blok** - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning meyorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

**Ikkinchi blok** - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

**Uchinchi blok** - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;
- subyektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi – yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - yetuklik – o'zlash tirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) – boyish (to'yinish) – qoloqlik - inqiroz – irradiatsiya(aldanish) – zamo naviylashtirish;
- boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
- tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

**Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.**

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- *pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;*
- *nihoyat amalga oshish qonuni;*
- *qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;*
- *pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;*

**Ayovsiz bemaromlik qonunida** pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo‘linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi.

**Nihoyat amalga oshish qonuni** yangilikning hayotiyligi bo‘lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

**Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni** shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o‘tish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo‘liga to‘siq bo‘lishga majbur bo‘ladi.

**Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining** mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

**Innovatsiyaning birinchi tipi** stixiyali o‘tadi, ya’ni innovatsion jarayonda unga bo‘lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo‘llariga ongli munosabat bo‘lmaydi.

**Innovatsiyaning ikkinchi tipi** ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Y.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- *madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;*
- *shaxsiy faoliyat jihatidan (ta’limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;*
- *ko‘p subyektli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;*
- *individual - ijodiy (o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro munosabatlari) yondashuv.*

Oliy maktabda **innovatsion faoliyatning subyekt**i o‘qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo‘ladi.

S.M.Godninning ishlarida *talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning subyekt sifatida yoritiladi*. Unga quyidagilarni kiritadi: o‘qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o‘quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko‘rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a’lo darajada yenga bilish, o‘shish va mustahkam o‘rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o‘zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo‘lish va hokazo.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari *shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi*. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri **talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish**.

Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi **gumanistik aksiologiya** ekan degan xulosaga olib keladi.

## **1.2. Uzluksiz musiqa ta'limi tuzilmasi va xususiyatlari. Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar.**

**Tayanch tushunchalar:** *uzviylik, uzluksizlik, uzluksiz ta'lim, innovatsiyalar, umumiy o'rta ta'limda musiqa fanlarini o'qitish, oliy ta'limda musiqa fanlarini o'qitish.*

### ***Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy fanlarini o'qitishda innovatsiyalar.***

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

#### **3.1.1. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli:**

-shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

-uzluksiz ta'lim -malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

-ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash

sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

**Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.**

Qonun umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari orqali sifatli ta'lim olish, shuningdek ta'lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

-Fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlari ro'yobga chiqarilishiga;

Davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim olish huquqiga;

-Ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart- sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

-Sog'liq va rivojlanishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim olishiga kafolat beradilar.

-Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

### **3.1.2. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari**

ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

### **3.1.3. Uzlüksiz ta'lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:**

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;

ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;

ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

uzlüksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

tub yerli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

### **3.1.4. Uzlüksiz ta'lim tizimi va turlari**

maktabgacha ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; maktabdan tashqari ta'lim.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I- IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

#### **Maktabgacha ta'lim**

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;



maktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha massalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

### **Umumiy o'rta ta'lim**

Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvini joriy etish;

o'quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

**Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir.**

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.**

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

**Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.**

Bakalavriat mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta‘lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta‘limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta‘lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta‘limdir.

Ikki bosqichli oliy ta‘lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

oliy ta‘lim muassasalari uchun professor-o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan chet ellardagi yetakchi o‘quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

oliy ta‘lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta‘lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish;

xalqning boy ma‘naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta‘limning insonparvarlik yo‘nalishini ta‘minlash.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta‘lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko‘ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish;

rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlanishi uchun sharoitlar yaratib berish;

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

yuqori malakali o‘qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to‘ldirib borishni ta‘minlash;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta‘lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

professional treningning ilg'or texnologiya va uskunalarini, shuningdek murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirib olish.

**Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehhtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.**

ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko'paytirish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

**Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni o'z ichiga oladi, bu sohada:**

oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo'ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi.

ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash chora- tadbirlarini ishlab chiqish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini samarali tarzda bajarishni ta'minlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro'yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro' e'tibori va ijtimoiy maqomini oshirish;

fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta'sis etish, maxsus stipendiyalar sonini ko'paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko'rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

Ishlab chiqarishning talab-ehhtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning muvoziy

texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi:

turli saviya va malakadagi mutaxassislariga bo'lgan talab-ehtiyojni shakllantiradi;

muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarni maqsadli tayyorlashni, shuningdek turli tip va darajadagi o'quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

ishlab chiqarish amaliyotini o'tish uchun ta'lim oluvchilarni ish joylari bilan ta'minlash;

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

### ***Ta'limning uzluksizligini ta'minlash***

Ta'lim muassasalarini hududiy yo'nalishga o'tkazish va tarkibiy tuzilmasini o'zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

### ***Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish***

Oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlariga mos yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha maxsus fakultetlar, shuningdek respublika viloyatlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun o'qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yuzasidan maxsus markazlar tashkil etiladi.

**Kadrlarni o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida isloh qilinadi. Ta'lim oluvchining shaxsiga, unda ta'lim va bilimlarga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.**

***Barcha sohalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish***

O‘zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta‘lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo‘mitalari, Respublika Ma‘naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy- amaliy markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o‘zaro puxta hamkorlik qiladilar.

*(O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 9 apreldagi O‘RQ-87- sonli Qonunitahririda — O‘R QHT, 2007 y., 15-son, 150-modda)*

**Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va o‘qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma‘lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o‘quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o‘quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta‘minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san‘atni o‘rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta‘lim muassasalari tashkil etiladi.**

*Uzluksiz ta‘lim tizimida musiqiy fanlarini o‘qitishda innovatsiyalar.*

“Musiqi ta‘limi” ta‘lim yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalarning aqliy imkoniyatlarini o‘stirish, ularda badiiy estetik borliqni butun tarovati va jozibasi bilan his etishni tarbiyalash muhim pedagogik- psixologik vazifa bo‘lib, ustoz-murabbiylardan tinimsiz mehnat va tashabbuskorlikni talab etadi.

Oliy ta‘lim tizimida o‘qitiladigan musiqiy fanlarning izchillik va mantiqiylik asosida rejalashtirilgan bo‘lib, bakalavriat bosqichi talabalarida aqliy imkoniyatlarni ma‘lum tizim asosida rivojlantirib borishga yo‘naltirilgan.

Mutaxassislik fanlari qatoriga kiruvchi “Maqom asoslari”, “An‘anaviy xonandalik”, “Cholg‘u ijrochiligi va ansambli”, “Vokal va zamonaviy musiqa”, “O‘zbek xalq musiqa ijodi”, “Xor va xorshunoslik”, “Cholg‘ushunoslik” va qolaversa “Musiqi nazariyasi”, “Garmoniya”, “Musiqi asarlari tahlili”, “Solfedjio” kabi fanlar talabalarning musiqiy bilim va tafakkurini, idrokini o‘stirishda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Keyingi yillarda xalqimizning madaniy merosini, jumladan musiqiy qadriyatlarini o‘rganish, tiklash va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, san‘at oliygohlari talabalar orasida mumtoz musiqa namunalari - maqomlarni, xalq ashulalari va kuylarini o‘rganish, milliy sozlarimizda chalish istagi ortib bormoqda. Ana shular e‘tiborga olinib, Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejasi ham takomillashtirilib, musiqiy fanlarga ajratilgan soatlar ko‘pytirilmoqda.

Mazkur fanlar sarasiga “Cholg‘ushunoslik” fanini ham kiritish joizdir. Ushbu fan asosan milliy sozlarimizning paydo bo‘lishi tarixi, shakllanishi, tuzilishi va ularning hozirgi musiqa ijrochiligidagi o‘rni haqida ma‘lumot berishga yo‘naltirildi.

Fan orqali talabalarda milliy cholg'ularning an'anaviy va ta'mirlangan nusxalari, tuzilishi va ijro etish mahoratini shakllantirish, shuningdek, ularda xalqimizning boy musiqiy ijodi haqida bilim va tasavvurlarni oshirishdan iborat.

Darslar jarayonida milliy sozlarning guruhlarga bo'linishi kamonli sozlar, noxun bilan chalinadigan, puflab chalinadigan hamda zarbli sozlar haqida talabalarga keng ma'lumot beriladi. Shuningdek, guruhlardagi har bir cholg'u asbobining tuzilishi, parda xususiyatlari (applikaturasi) an'anaviy va akademik (ta'mirlangan) turlarini taqqoslash yo'li bilan ularning ijro xususiyatlari tahlil etiladi.

Shuningdek, milliy sozlarimizning bastakorlik ijodiyoti bilan o'zaro munosabati, ularni yakka va ansambl (jamo bo'lib) chalish imkoniyatlari hamda cholg'ularimizning o'tmishi va hozirgi zamon ustoz ijrochilari ijodi bilan bakalavrlarni tanishtirish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga milliy sozlarning umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsini o'tishdagi imkoniyatlari borasida ham keng ma'lumot beriladi.

Shuni aytish joizki, "Cholg'ushunoslik" fani musiqa mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning kasbiy bilimlari va dunyoqarashini boyitish bilan birga, ularning milliy musiqiy merosimiz, maqomlarga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, o'z kasblariga bo'lgan muhabbat va e'tiqodlarini yanada mustahkamlaydi va shu orqali tafakkur hamda idrokni tarbiyalashga olib keladi.

Mazkur dars jarayonida talabalar jamoa bo'lib musiqiy asarlarni chaladilar va cholg'ushunoslik fani bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni amalga tadbiq etadilar.

Milliy sozlarimizning paydo bo'lish tarixi o'zbek milliy davlatchiligining shakllanishi tarixi bilan mushtarakdir. Manbalardan ma'lumki, milliy musiqa cholg'u asboblarimizning tarixi olis zamonlarga borib taqalar ekan, ya'ni, eramizdan avvalgi XIII ming yillikdayoq, dastlab urma zarbli cholg'ular so'ngra shovqinli sozlar paydo bo'la boshlagan. Nega aynan urma zarbli sozlar ilk bor kashf etilishini buyuk olimlar eng qadimgi mehnat qo'shiqlari - ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liqlikda yuzaga kelganidan, deya izohlaydilar<sup>1</sup>. Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, nay, hushtak, shaqildoq va chiltor (arfa) singari cholg'ular yasaladi. Ma'lum muddatdan so'ng torli mezrobli va torli kamonli musiqa cholg'ulari yaratiladi. Keyinchalik ko'p asrlik madaniy taraqqiyot jarayonida o'ziga xos tuzilish va jarangdorlikka ega bo'lgan dutor, tanbur, rubob, g'ijjak, chang singari an'anaviy sozlar ijod qilingan. Dunyo endigina ohangni kashf eta boshlaganida Turon zaminida anchagina yutuqlar qo'lga kiritilganining o'ziyoq musiqiy merosimizning shajarasi juda uzoqligiga ishonch hosil qilish mumkinligini izohloydi.

<sup>1</sup> Абдуллаева С. Современные азербайджанские музыкальные инструменты. Баку. 1984 г., С.5.

Jamiyatning evolyusion rivojlanishi jarayonida xalq cholg'uchilari Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari xalqlarining turmushi va mehnat faoliyatiga singib inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib qoldi va bu cholg'ulardan xalqlar o'z milliy marosim hamda oilaviy bayramlarida keng foydalanib kelishgan. Shubhasiz, bu davrda cholg'u ijrochiligi san'ati ham ma'lum darajada rivojlanish bosqichiga ko'tarilib, xalq orasidan mohir va iste'dodli yakkanavoz sozandalar yetishib chiqadi. Shundan so'ng yakkanavozlik ijrochiligi bilan bir qatorda asta-sekin jo'rnnavozlik ijrochiligi ham shakllanib omma orasida tarqala boshladi.

**Talabalarning musiqiy tafakkuri va idrokini yuksaltirishning axborot texnologiyalari yana bir vositadir.** Milliy qadriyatlar, ayniqsa mumtoz musiqa asosida oliy musiqa ta'limida tahsil olayotgan bakalavrlarning aqliy imkoniyatlarini, ularda musiqiy tafakkur va idrokni yuksaltirish uchun barcha mavjud ish usullarini qo'llash taqozo etilmoqda. Shu jumladan, hozirgi sharoitda ta'lim sohasiga ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarning jadal kirib kelayotganligi sababli, maqomlarning jozibali, maftunkor, o'ziga jalb etuvchi, tinglovchining hissiyotlariga ta'sir etib, unda turli kayfiyat va kechinmalarni uyg'otuvchi kuchini bakalavrlarga ushbu vositalar orqali yaqqol ko'rsatish, ularda mumtoz musiqamizga nisbatan mehr-muhabbatni uyg'otish o'ta muhimdir.

Musiqa ta'limi tizimida talabalar bilan ishlab, ularda musiqiy tafakkur va idrokni yuksaltirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin.

Yaqin vaqtlargacha o'quv mashg'ulotlarida qo'llanib kelingan audio va videotexnika vositalari faqatgina berilgan musiqiy material: maqom sho'balari hamda turli musiqa janrlariga xos asarlarni eshittirish va ko'rsatish imkoniga ega, xolos. Biroq, bugungi kunda ushbu vositalar izlanuvchan o'qituvchi va talabalarni qoniqtirmaydi.

Bugungi kun talabi darajasida yondashib, oliy musiqa ta'limida musiqiy fanlarni amaliy mashg'ulotini o'qitish jarayonida talabalar bilan ishlash faoliyatini olib ko'radigan bo'lsak, fan doirasida berilgan maqom asarining nota matnini tahliliy o'rganish, notalarni nomlari bilan aniq intonatsiyada kuylash, asarda uchraydigan turli intervallar, dinamika va ijro sur'atini aniq tasavvur etgan holda kuylash, shuningdek, notalarni solfedjio qilib kuylash talab etiladi.



Bundan tashqari, asarda uchraydigan murakkab parchalarni alohida mashq qilish, asarlar va ularning parchalarini tahliliy tinglab o'z xulosasini chiqarish vazifasi qo'yiladi. Bu ko'pqirrali badiiy musiqiy faoliyatni yuqori saviyada bajarish uchun nota ijrosini kuzatish, tinglash va ko'rish, ya'ni audiovizual idrok etish maqsadga muvofiq.

Ushbu ta'limiy vazifalarning barchasini yuqori saviyada amalga oshirishda eng oxirgi kompyuter dasturlari qo'l keladi. Mazkur zamonaviy kompyuter dasturlari sirasiga hozirgi kunda dunyo musiqa amaliyotida keng tarqalgan va qo'llanilayotgan "Final" ("Finale") hamda "Sibelius" ("Sibelius") nota matn muharriri dasturining 1 – 6 versiyalarini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu kompyuter dasturlari zamonaviy musiqa amaliyotini uning nazariy asoslariga tayangan holda amaliy tarzda aks ettirish imkoniga egadir.

Jumladan, "**Sibelius 4**" nota matn muharriri dasturi vositasida:

- nota yo'liga notani yozish;
- uni tahrir qilish;
- tinglash jarayonida qaysi nota ijro etilayotganligini real tarzda kuzatib borish;
- musiqa asarini boshqa tonallikka transpozitsiya qilish;
- musiqa asarini oldingi tonalligiga qaytarish;
- ma'lum nota matnini nusxalash;
- tinglangan musiqa asarining notasini avtomatik tarzda ekranda namoyish etish va zarur bo'lganda qog'ozda bosib chiqarish hamda boshqa ko'pgina operatsiyalarni bajarish mumkin.


Dasturni ishga tushirishda dastlab ekranda barcha vazifalar aniq ko'rsatiladi. Shunda ulardan biri tanlanadi, masalan, agar tayyor material olinadigan bo'lsa, unda chap tomon yuqoridagi birinchi yozuv belgilanib, OK belgisi bosiladi (3-rasmga qaralsin).




Agar yangi bet ochib nota yozish talab etilsa, chap tomondagi yuqoridan pastga tomon uchinchi qatordagi yozuv belgilanadi va OK belgisi bosiladi. Nota yozish uchun nota yo'li aks ettirilgan sahifa ochilgach tonallik belgilanadi masalan, do major. Ushbu belgilangan vazifalar darhol nota matnida o'z o'rnida paydo bo'ladi va talaba ongida ma'lum dastlabki nazariy bilimlar aks etishiga imkon yaratadi. Bu esa aynan maqomlar musiqasiga qiziqqan, iqtidorli talabalarning fan bo'yicha nazariy bilimlari mustahkamlanishi barobarida ularda tafakkur va idrok bilish




jarayoni yuksalishiga, amaliy ko'nikmalar shakllanishiga shart-sharoitni kengaytirib, musiqiy bilim olishga nisbatan ehtiyoj va motivatsiyani kuchaytiradi.



So'ngra o'lchov qo'yiladi, masalan 4/4.



Nihoyat, maxsus ekran ko'rsatkichi (yordamchi klaviatura) vositasida nota matni nota yo'liga birin-ketin joylashtiriladi.



Bundan tashqari, talaba o'zi uchun muhim bo'lgan musiqa parchasini ushbu dastur orqali kompyuterda yozib, o'z ijrosidagi xatoni ko'rishi va tuzatishi, uni maxsus dasturli sintezatorida ijro ettirib tinglashi va o'z faoliyatini baholashi, turli janr va uslublarga xos bo'lgan asarlarni yoki ularning parchasini tahliliy tinglashi

hamda asar borasida ma'lum xulosalarga kelishi mumkin. Bu esa talabalar bilan ishlashda yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo'ladi.

### **1.3. “Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” fanini o‘qitishning maqsadi va vazifalari**

**Tayanch tushunchalar:** metodika, musiqa o‘qitish metodikasi, musiqashunoslik, innovatsiyalar, musiqa o‘qitish tamoyili, ta’lim-tarbiya, rivojlantirish.

**Metodika** – pedagogika fanining bir sohasi bo‘lib, turli predmetlarni o‘qitish uslubiyatidir. Qisqacha qilib aytganda metodika - bu uslub, keng ma’noda – ta’limot.

**Musiqa o‘qitish metodikasi** – musiqa san’ati vositasida bola shaxsini maqsadga yo‘naltirgan holda musiqa madaniyatini shakllantirish yo‘llarini o‘rganadi. Musiqa o‘qitish metodikasi didaktik va xususiy tamoyillar, usul, vosita va metodlar yordamida musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonini olib borish hamda uning umumiy va xususiy vazifalarini hal etish yo‘llarini belgilaydi. Umumiy vazifalarga – musiqaning tarbiyaviy ta’sir kuchini ko‘rsatish, ta’lim oluvchilarda musiqaga bo‘lgan muhabbatni, ehtiyojni o‘stirish, musiqa tinglash jarayonini tashkil etish, musiqa madaniyatini shakllantirish va h.k. masalalar kiradi.

“Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” pedagogika-psixologiya fanlarning sohalari bilan uzviy bog‘liqlidir. Bu esa zamonaviy hayotimizda jamiyat oldida turgan vazifalar, ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar oldiga qo‘yiladigan talablar, ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlari, musiqiy ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularning rivojlanish istiqbolini belgilash imkoniyatini beradi.

Metodika o‘z oldida turgan muammolarni hal etishda ham psixologiyaga tayanadi. Masalan, musiqa idroki, ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun inson ruhiyati, ongi, tafakkuri, xotirasi, tasavvuri qonuniyatlari, uning ko‘rinishlari, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarga, musiqiy qobiliyat, inson faoliyati nima ekanligi xususidagi tushunchalarga ega bo‘lishi shart.

“Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” umumiy ta’limning murakkab va ko‘pqirrali maqsadlarini hamda musiqa ta’lim-tarbiyasi vazifalarini samarali hal etish uchun pedagogika va psixologiya fanlari bilan bir qatorda musiqashunoslik ilmi va musiqa ijrochiligi sohaslariga ham tayanadi.

Musiqashunoslik ilmining musiqiy tarixiy-nazariy fanlar mazmuni ta’lim oluvchilarga musiqiy san’at xususiyatlarini yetkazish yo‘llarini topishga, ularga hayotning musiqiy obrazlarda aks etishi, musiqiy ifoda vositalarining ahamiyatini tushuntirishda, musiqiy asarlarni badiiy tahlili metodlari va texnologiyalarini aniqlash, kasbiy takomillashishida yordam beradi. Musiqa tarixi, asosiy

yo‘nalishlar, uslub va janrlarning rivojlanishi, yirik kompozitorlarning o‘ziga xos ijod yo‘li haqidagi bilimlar ta’lim oluvchilarining musiqiy didini tarbiyalash, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularning dunyoqarashini kengaytirishga asos bo‘ladi.

“Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” fanining asosiy tushunchalari “tarbiya-ta’lim» – «rivojlantirish» va ularning o‘zaro bog‘liqligidir.

**Tarbiya** - pedagogikada tarbiya deganda bolalar, o‘smirlar, yoshlarning jismoniy, ma’naviy kuchlarini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish tushuniladi.

Musiqqa hayotni aks ettirishi, hayot bilan bog‘liqligi, uning musiqqa ijodkori, ijrochisi va tinglovchisining hayotiy qarashlariga bog‘liqligi musiqani tarbiya vositasiga aylantiradi. Musiqiy tarbiya jarayonida talabada ahloqiy, aqliy, estetik jismoniy sifatlar tarkib topadi.

**Ta’lim** - bilimlar majmuasini o‘zlashtirish jarayonidir. Xususan, musiqiy ta’lim o‘kuvchilarni turli musiqiy faoliyatlarga o‘rgatish, musiqiy tasavvur, bilim, malaka va ko‘nikmalar berish va bu bilimlarning talabalar tomonidan o‘zlashtirishi jarayonidir.

**Rivojlantirish** – eng oddiy, sodda musiqiylik ko‘rinishlaridan murakkablariga qarab takomillashish. Boshqacha aytganda, musiqiy qobiliyatlarning o‘sishi va shakllanishi jarayoni rivojlanishni hosil qiladi.

Talabalarga musiqiy ta’lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish ishlari yaxlitlikda olib borilishi musiqqa pedagogikasining eng muhim qonuniyatlaridir.

Musiqqa o‘qitish tamoyili (prinsiplari) - bu musiqiy ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan talablar yig‘indisidir.

Musiqqa o‘qitish metodikasi pedagogika fani sifatida uning umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi va umumdidaktik tamoyillarga asoslanadi:

- tarbiyalovchi ta’lim;
- ilmiylik, tizimlilik va izchillik;
- musiqiy materialning qulayligi va ta’lim oluvchilar yoshiga mosligi;
- ko‘rgazmalilik;
- tasavvur, bilim, malaka va ko‘nikmalarning mustahkamliligi;
- ta’lim oluvchi musiqiy faoliyatining faolligi, mustaqilligi;
- musiqiy tarbiyaning hayot bilan bog‘liqligi.

Mazkur tamoyillar o‘qituvchi hamda talabalar tomonidan bajariladigan barcha *ta’lim komponentlari* - dars mazmuni, metodlari, dars tuzilishidagi asosiy talablar va yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Shu bilan bir qatorda musiqa o‘qitish metodikasi o‘zining xususiy tamoyillarini ham ilgari suradi. Bulardan: *emotsionallik va onglilikning birligi* hamda *badiiylik va texnikaning birligi* tamoyillarini ko‘rib chiqamiz.

**Emotsionallik va onglilikning birligi tamoyili.** Bu tamoyilning zarurligi musiqa san’ati va uni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Musiqani idrok etishni rivojlantirish undan olingan hissiy taassurotlar, uning ifoda vositalarini anglashni talab etadi. Musiqiy asarni tinglashdan olingan hissiy ta’sirni ong bilan qabul qilish uning mazmunini tushunishga, talabalarda musiqiy tajriba to‘plashga yordam beradi. Talabalarning fikri, kechinmalari, hissiyotlarini boyitadi, musiqaning ta’sirini kuchaytiradi. Mazkur tamoyilni musiqa o‘qitishda qo‘llash talabalarda idrok etilgan asarga baho berish qobiliyatini o‘stiradi va shu asosda ularning qiziqishi, musiqiy didi, ehtiyojlari tarbiyalanadi.

**Badiiylik va texnikaning birligi tamoyili.** Musiqiy asarni badiiy va ifodali ijro etish uchun ma’lum bir malaka va ko‘nikmalar talab etiladi. Masalan, qo‘shiqni o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilarda vokal-xor malakalari shakllantiriladi. Cholg‘u asboblari ijro etish uchun ham birgalikda chalishning eng oddiy usul va yo‘llarini egallashlari lozim. Bunda ijrochilik malakalari badiiy vazifalarga, ya’ni musiqiy asar obrazi, kayfiyatining yorqin, ifodali yoritilishiga qaratilgan bo‘lishi talab etiladi. Bunda musiqiy asarning badiiy ijrosiga erishish **maqsad** bo‘lib, malaka va ko‘nikmalarni egallash shu maqsadga yetishishda **vositadir**.

Bu tamoyillar talabalarda musiqiy qobiliyatlarni, musiqaga qiziqishni, did va musiqa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

*Musiqiy qobiliyatlar*, ularning turlari, maxsus (ijrochilik, bastakorlik) va umumiy musiqiy qobiliyatlar, ularning rivojlanish shart-sharoitlari masalalari ko‘plab psixolog (B.Teplov, V.Myasishev, B.Yavorskiy, V.Petrushin va h.z.), pedagoglar (L.Barenboym, V.Beloborodova, Y.Aliyev, N.Vetlugina), musiqashunoslar (B.Asafyev, A.Alekseyev va b.) tomonidan keng o‘rganib chiqilgan. Hozirda ham bu muammolar o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

“Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi”ning **maqsadi** yosh avlodni milliy musiqa merosiga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida kamol toptirish, musiqa madaniyatini shakllantirish, yuqori malakalali kadrlar sifatida tayyorlashdir.

Talabalarda musiqa madaniyatini shakllantirish maqsadida bir qator **vazifalar** belgilanadi:

- musiqiy ta’lim-tarbiyani hayot bilan bog‘lab olib borish;
- talabalarning musiqa san’atiga mehr, qiziqishlarini o‘stirish;
- musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;

- iqtidorli talabalarning musiqiy rivojlanishlari uchun sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojini qondirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik his-tuyg‘ularini rivojlantirish;
- musiqiy asarlarning badiiy-g‘oyaviy mazmuni vositasida talabalarda ahloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash.

Fan asoslarini o‘qitish metodikasi kabi ixtisoslik o‘quv predmetlari metodikasi u tegishli fan bilan pedagogika orasida vujudga keladi. Shu bilan birga umumilmiy o‘quv predmetlari metodikasi bilan ixtisoslik o‘quv predmetlari metodikalari bir-biridan farq qilishini ham ta’kidlash zarur. Fan asoslari amalda umumilmiy yoki umumta’lim o‘quv predmetlari deb yuritilib, ularning mazmuni bevosita ular tegishli bo‘lgan fandan ajratib olinadi hamda didaktik ishlov berilib, undan so‘ng o‘rganiladi.

#### ***1.4. Musiqa san’ati fanlarining o‘ziga xos jihatlari***

Oliy ta’limda musiqa san’ati darslarini olib borish amaliyoti jarayonida bir necha xususiy, ya’ni musiqa san’atini o‘qitishga xos bo‘lgan metodlar yuzaga keldi. Shulardan bir qanchasini ko‘rib chiqamiz.

**Kontrast (tafovut) – taqqoslash metodi.** Akademik B.Asafyev tomonidan taklif etilgan va musiqani idrok etish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Badiiy-pedagogik tahlil jarayonida o‘qituvchi qo‘ygan vazifalarga javob berish uchun talabalar musiqiy obrazning o‘zgarishi va rivojlanishini kuzatishlari, o‘zlarining taassurotlarini anglashlari va xulosalar qila olishlarini taqozo etadi.

Musiqiy tajribasi kam bo‘lgan talabalar uchun tafovutli (kontrast) asarlarni taqqoslash orqali ijrochilik uslublarini o‘zlashtirgan holda, asarlar to‘g‘risida mantiqiy tafakkurga ega bo‘ladi.

**«Musiqiy tasavvurni buzish» metodi.** Musiqaga emotsional ta’sirchanlikni, musiqa «nutqi» elementlarining ifodaviyligi haqidagi tasavvurni shakllantirishi metodidan boshqacha yo‘l bilan ham foydalanish mumkin. O‘qituvchi talabalarga yaxshi tanish bo‘lgan asarning ma’lum bir ifoda vositasi yoki ijro shtrixlarini o‘zgartirgan holda ijro etadi va talabalarga musiqaning xarakteri o‘zgargan yoki o‘zgarmaganligini aniqlashni taklif etadi. Vazifani hal etilishi jarayonida talabalar musiqa ifoda vositalari va shtrixlarning ahamiyatini to‘laroq tushunadilar, asarlarni yanada diqqat bilan tinglashga harakat qiladilar.

**Qiyosiy tahlil.** Musiqiy tajriba orttirish natijasida talabalar katta, yirik janrlardagi asarlarni **qiyosiy tahlil** qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xususan, turk, ozarbayjon, tojik va afg‘on xalqlari musiqasi namunalari bilan tanishadilar va qiyosiy tahlil jarayonida ularda o‘zbek musiqasiga ko‘p jihatdan «maqom» janri

orqali, musiqa ladlari, usullar, nola va bezaklarda, cholg'ularda umumiylik mavjud ekanligini bilib oladilar.

Taqqoslash, qiyoslash metodlari vokal-xor ishlarida, musiqa savodxonligini o'zlashtirishda ham yaxshi samara beradi.

**Emotsional ta'sir etish metodi** – o'qituvchining musiqiy asarga obrazli so'z, mimika, jestlar orqali o'z munosabatini ko'rsata olishida namoyon bo'ladi. Asar kayfiyati, xarakteriga mos ravishda uning ovozi hissiy «turlanadi». Bunday ifodaviy usullarni o'qituvchi musiqaning emotsional ta'sirini kuchaytirish va talabalar taassurotini boyitish uchun qo'llaydi.

**Muammoli o'qitish metodi.** Talabalarda mustaqillikka, o'zligini anglashga bo'lgan intilish ularning musiqiy qiziqishlari, ehtiyojlariga ham ta'sir etadi. Turli qarashlarning yuzaga kelishi *muammoli holatlarni* keltirib chiqaradi va ular «bahs-munozara» larda o'z yechimini topadi. Bu jarayonda biron-bir talaba chetda qolmaydi. Munozara jarayoni talabalarning musiqiy tajribasini faollashtiradi, o'z fikrini himoyalashga undaydi. Mohirona tashkil etilgan bahslarda o'qituvchi talabalarga turli fikr-mulohazalarni, ulardagi ziddiyatlarni xolisona ko'rsata olishga yordam beradi. Har qaysi taraf ma'lum bir xulosalar chiqaradi, musiqiy namunalarni keltiradi, ya'ni faol munozara talabalarda dunyoqarashlar, ishonchlarni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgandan tashqari musiqiy ta'lim-tarbiyada yana bir qator xususiy va innovatsion metodlar qo'llaniladi. O'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarqatma materiallar, kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, amaliy ishni tashkil etish buyicha texnologik xaritalar kiradi.

Didaktik topshiriqlar va materiallarni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Muammolarni hal qilishga yunaltirish;
2. Tadqiqotlar olib borishga yunaltirish;
3. Turli vaziyatlar va holatlar tahliliga qaratish;
4. Tajribalar va mashqlar o'tkazishga muljallash;
5. Yangiliklarni izlash va topishga yo'naltirish.

Mustaqil o'rganishni ta'minlovchi va amaliyotlarni o'tkazishga yo'naltirilgan o'quv materiallarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bularga yo'naltiruvchi matnlar, loyihalar va modullarni misol qilish mumkin. Bu o'quv materiallari Talabalarni mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo'naltiradi. O'quv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli bo'yicha nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi savol va topshiriqlar tizimini qamrab olishi kerak.

Ijodiy topshiriqlar tarkibiga ijodiy mashq, ijodiy mustaqil ish, turli didaktik o‘yinlar kiradi. Agar ijodiy mashq vositasida o‘rganilgan bilimlar yangi o‘quv holatlariga tatbiq qilinsa, ijodiy mustaqil ish dilillardan yangi xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini faoliyatda qo‘llash bilan ajralib turadi.

Muommali vaziyatlar va ijodiy o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga rioya etilishi tavsiya etiladi:

- topshiriqlar haqiqiy vaziyatlar bilan bog‘liq muammolarga qaratilishi kerak;
- o‘quv topshirig‘idagi muammoni hal etishda talabalar aqliy faoliyatini turli usullar yordamida rivojlantirishni ko‘zda tutadi;

- topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi muhim bog‘liqlik ko‘rsatilishi kerak;

- topshiriqlar yechimini aniqlash va talabalar ongida hodisalar yoki jarayonlar o‘rtasida bog‘liqlikni mustahkamlash imkoniyatlarini nazarda tutilishi lozim;

- topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba oddiy tushunchalardan, u hali o‘zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini berishi lozim;

- topshiriqni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar talabaga ma‘lum bo‘lmagan tushunchalar bilan o‘zaro tahlil qilinadi;

- topshiriqni bajarishda talaba tushunchalarning shakli va mazmunini o‘zgartirmasdan va o‘zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi.

Mustaqil ishlar talabaning umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o‘stirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek talabalarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta‘limiy ahamiyatga ham ega bo‘lishi kerak. Tarbiyaviyahamiyati shundaki, talaba o‘z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o‘zini-o‘zini tarbiyalab boradi. Ta‘limiy ahamiyati esa talaba bo‘sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil bilim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi.

Mustaqil ishlarning turlari, shakllarini tanlashda “oddiydan-murakkabga” hamda “umumiyydan-xususiyga”, “mavhumdan-aniqlikka” tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir talaba shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Musiqiy ta‘lim-tarbiya metodlarining turlicha ekanligi musiqa san‘atining o‘ziga xosligi hamda talabalar musiqiy faoliyatining xususiyatlari bilan aniqlanadi. Bu metodlarning har biri alohida qo‘llanmasdan, balki bir-biri bilan bog‘liq holda, bir-birini to‘ldirgan holda uzviy amalga oshiriladi.

Shunday qilib, musiqa darsining maqsadiga ko‘ra belgilangan vazifalarni amalga oshirishda eng muqobil metodlarni tanlashi, bir asar ustida har gal yangicha shaklda ishlashi, darsda nafaqat faol talabalarni, balki passiv talabalarni ham ishga

jalb eta olishi, o‘qituvchi va talabalar hamkorligi holatini yuzaga keltirish - musiqa o‘qituvchisining ijodkorligini, mahoratini namoyon etadi.

### **Nazorat savollari**

1. Uzlüksiz musiqiy ta’lim jarayonning integratsiyasi mazmuni nimalardan iborat?
2. “Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” fanini o‘qitishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Metodika o‘z oldida turgan qanday muammolar mavjud?
4. Musiqa o‘qitish tamoyillari qanday?
5. Badiiylik va texnikaning birligi tamoyilini tavsiflab bering?
6. Musiqiy qobiliyatlar va ularning turlari?
7. Kontrast (tafovut) – taqqoslash metodi nimani bildiradi?
8. Muammoli o‘qitish metodini musiqa san’atiga tatbiq etish masalalari?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rahimov SH. Musiqa san’atiga o‘rgatish metodikasi. - T.: O‘quv qo‘llanma, 2009. – 224 b.
2. Madaniyat sohasiga oid meyoriy hujjatlar to‘plami. O‘z.R. Madaniyat va sport ishlari vazirligi, 2010 y.

### **2-mavzu: Ochiq darslarni o‘tkazish va darslarni tahlil qilish metodikasi. Darslik va elektron darslik hamda o‘quv va elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish metodikasi (2 soat).**

#### **Reja:**

- 2.1. Ochiq darslarni o‘tkazish va darslarni tahlil qilish metodikasi.
- 2.2. Darslik va elektron darslik hamda o‘quv va elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish metodikasi.
- 2.3. Musiqa fanlarini o‘qitishda “Ustoz-shogird” an’analari.
- 2.4. Musiqa san’ati fanlarini o‘qitishda ta’lim metodlari va vositalari

***Tayanch iboralar:*** *texnologik xarita, kompyuter texnologiyalari, elektron darslik, mustaqil ta’lim, audio, video, animatsiya.*

Bugungi kunda yosh avlodni zamon ruhi va talabi hamda ishlab chiqarish ehtiyojlariga to‘liq javob beradigan darajada o‘qitish va tarbiyalash “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy talabi



hisoblanadi. Belgilangan ushbu ulug‘vor vazifalar ta‘lim va tarbiya tizimidagi barcha bo‘g‘inlarning o‘zaro hamkorligi asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Ta‘lim tizimidagi boshqa bo‘g‘inlarda bo‘lgani kabi maktablarda, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida, shuningdek oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya berish jarayonining asosiy shakli nazariy va amaliy mashg‘ulotlardir.

O‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari o‘tkaziladigan barcha ta‘limiy-tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida olgan bilimlarini to‘ldirishga xizmat qiladi. Shu bois, hamma o‘quv dargohlarida nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning sifat-samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilish nihoyatda muhimdir.

Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini yuksak darajada tashkil etish va o‘tkazish uchun o‘qituvchi va muhandis-pedagogning o‘z mutaxassisligini chuqur bilishi kifoya emas. Buning uchun o‘qituvchi-muhandisdan yuqori darajadagi pedagogik mahorat ham talab etiladi. O‘qituvchi-pedagog nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tish, o‘zaro darslarga kirish, kasbdoshlarining dars mashg‘ulotlarini kuzatishi hamda ularni tahlil qilish jarayonida pedagogik mahoratga ega bo‘lib boradi. Shuning uchun o‘quv mashg‘ulotlari tahlili masalalari fakultet dekanlari va kafedra mudirlarining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Professor o‘qituvchi ochiq o‘quv mashg‘uloti tahliliga kirishdan oldin nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning tuzilishi, turlari, uning tahliliga qo‘yiladigan talablar va uning maqsad-vazifalarini bilishi kerak.

*Ochiq o‘quv mashg‘uloti* – ta‘lim jarayonining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ta‘lim-tarbiya masalalarini hal qilishning amaliy va qulay shakli hisoblanadi. Ta‘lim jarayonida uning maqsadi, mazmuni, usullari, tamoyillari va tashkiliy shakllari birgalikda namoyon bo‘ladi.

Har bir fanni (u umumta‘lim yoki mutaxassislik fan bo‘lishidan qat‘iy nazar) o‘qitish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ammo, o‘quv mashg‘ulotining hamma fanlar uchun umumiy bo‘lgan tomonlari ham mavjud. Bu nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning tuzilishida alohida ko‘rinadi. O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi turlicha bo‘lishi mumkin va uni doimo faqat bir an‘anaviy andoza bilan o‘tkazish mutlaqo shart emas. Uning tuzilishi o‘quv materialining mazmuniga, o‘quvchilarning bilim darajasiga va o‘qituvchi-mutaxassisning pedagogik mahoratiga bog‘liq. Shunga qaramasdan didaktika(ta‘lim nazariyasi) nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning tuzilishida quyidagi asosiy bosqichlar mavjudligini ko‘rsatadi.

1. O‘quv mashg‘ulot mavzusini ta‘riflash.
2. O‘quv mashg‘ulotning maqsadini tushuntirish.
3. O‘tgan o‘quv mashg‘ulotda aytilgan ma‘lumotlarni qanchalik esda qolganligini tekshirish.

4. Yangi mavzu materialini bayon etish va o'quvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash.

5. O'tilgan o'quv materialini takrorlash va uni mashq yoki Amaliy ishlar bilan mustahkamlash.

6. O'rganilgan mavzuni davra suhbatida takrorlash.

7. Talabalar bilimini tekshirish va baholash (o'quv mashg'uloti davomida takrorlash yoki uy vazifalarini tekshirish paytida ham amalga oshirish mumkin).

8. O'quv mashg'ulotini yakunlash.

Ochiq o'quv mashg'ulotining bu bosqichlari har bir nazariy yoki amaliy mashg'ulotda doimo shu tartibda takrorlanmaydi. Chunki ijodiy izlanuvchan pedagog bularni o'z tajribasi bilan to'ldirishi, boyitishi va o'quv mashg'ulotining maqsadi hamda vazifalariga ko'ra o'zgartirishi mumkin.

### ***O'quv mashg'ulot turlari***

1. Aralash (kombinatsiyalash) o'quv mashg'uloti
2. Yangi bilimlarni o'zlashtirish.
3. O'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash.
4. Umumlashtirish va tizimlashtirish.
5. Texnik vositalar asosida o'rgatish.
6. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish.
7. Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash.

Tavsiya etilayotgan ochiq o'quv mashg'ulotlari orasida aralash o'quv mashg'ulotlari eng ko'p qo'llaniladi. Aralash mashg'ulotda bir necha didaktik maqsad qo'yiladi. Bunday o'quv mashg'ulotlarning tuzilishi tashkiliy qism, uy vazifalarini tekshirish va o'zlashtirilgan bilimlarni aniqlash, Yangi mavzuni bayon etish, uni mustahkamlash va uyga vazifani o'z ichiga oladi.

Ochiq o'quv mashg'ulotlari tahlili samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar didaktikaning asosiy tamoyillaridan, yuqorida ko'rsatilgan o'quv mashg'ulot turlari va uning tuzilishidan xabardor bo'lishlari talab etiladi.

Ochiq o'quv mashg'uloti jarayonini tahlil qilishda ko'pincha quyidagi kamchiliklar kuzatiladi: tizimsizlik, o'quv mashg'ulotlariga tasodifan ishtirok etish, aniq bir maqsadning yo'qligi, tahlil etuvchining mashg'ulotni chuqur tahlil qilishga uslubiy tayyor emasligi, aniq kuzatish dasturining yo'qligi, o'quv mashg'ulotda asosiy tomonlarini ajratib ko'rsata olmasligi, xulosalar chiqara olmasligi, kasbdoshiga malakali tavsiyalar va metodik yordam bera olmaslik.

Ayniqsa, har bir ochiq o'quv mashg'ulotiga qatnashishdan oldin aniq maqsadni belgilash zarur. Qo'yilgan maqsad o'quv mashg'ulotida qatnashish va uni tahlil qilishni yanada samaraliroq, xulosalarni yanada aniqroq qiladi.

1. Har doim bir xil tuzilish bilan mashg'ulot olib borish, ko'p baho to'plashga intilish, oqibatda so'rovni bo'rttirib yuborish.

2. O‘quv materialini mazmunining ortiqcha to‘ldirilishi, ortiqcha ikir-chikirlar bilan mazmunning yo‘qolishi, mavzudan chekinishga asosiz intilish.

3. Bilimlarni qo‘llashga yetarli e‘tibor bermaslik. Nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanishning uzoqligi va hokazo.

Ochiq o‘quv mashg‘uloti tahlilining turlari

**Ochiq o‘quv mashg‘uloti tahlilini shartli ravishda quyidagi asosiy 5 turga bo‘lish mumkin:**

**Ilmiy tahlilda** – har bir bilim ilmiy asoslangan, tajribadan o‘tgan va o‘quvchilarga yaxshi ma‘lum bilimlardan kelib chiqib tushuntirilishiga ahamiyat beriladi.

**Metodik tahlilda** – o‘quv materialini bayon etish va tushuntirish jarayonida qo‘llanilgan usullarning shu material mazmuniga mosligi yoki mos emasligi aniqlanadi.

**Didaktik tahlilda** – pedagogning o‘z ochiq o‘quv mashg‘ulotini ta‘lim tamoyillariga amal qilgan holda olib borilishi o‘rganiladi.

**Umumpedagogik tahlilda** – ochiq o‘quv mashg‘ulotining hamma jihatlarining qisqa va o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

**Umumpsixologik tahlilda** – ochiq o‘quv mashg‘ulotning tuzilishiga, mazmuniga psixologik jihatdan baho beriladi va o‘quvchilarning quyidagi faoliyatlarini tahlil qila olishi o‘rganiladi:

1. diqqatni tashkil etish;
2. idrokni tashkil etish;
3. xotirani faollashtirish va rivojlantirish;
4. fikrlash faoliyatini kuchaytirish;
5. mulohazalarning mantiqiyiligiga erishish;
6. talabaga qo‘yilgan talablarga erishtirish va boshqalar...

**Kuzatilgan o‘quv mashg‘ulotini rasmiylashtirish**

Ta‘lim tizimida ko‘p yil faoliyat ko‘rsatgan tajribali rahbarlarimiz o‘quv mashg‘ulotlarini kuzatish va tahlil qilish uchun maxsus daftar yoki jurnal tutishni tavsiya etishadi.

Alohida daftar yoki jurnal tutish tahlillar muddati, miqdori va ketma-ketligini ta‘minlaydi. Avvalgi tahlillar bilan qiyoslash va yo‘l qo‘yilgan xatolarning tuzatilganligini ko‘rish imkonini beradi.

Tahlil daftarlaridagi kuzatishlar o‘quv yili yakunida to‘la o‘rganilib, erishilgan yutuq va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar kafedra yig‘ilishida yoki ta‘lim muassasasi pedagogik kengashlarida muhokama qilinadi. Bu esa Yangi o‘quv yilida o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun nimalarga ko‘proq e‘tibor berish kerakligini ko‘rsatadi.

Tahlil daftarida kuzatilgan o‘quv mashg‘ulotini quyidagi pedagogik talablar asosida yozib borish tavsiya qilinadi.

- O‘quv mashg‘uloti, pedagog va guruh haqida umumiy ma’lumotlar: sana; pedagogning familiyasi, ismi-sharifi; ma’lumoti; pedagogik faoliyati; fan nomi; o‘quv mashg‘uloti mavzusi; maqsadi; o‘quv xonasining sanitariya holati(tayyorgarligi).

- O‘qituvchining o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarligi: ishchi dastur; taqvim mavzu reja; o‘quv mashg‘ulot rejasi; ma’ruza matni; ilmiy, o‘quv va metodik adabiyotlar; ko‘rgazmali o‘quv qurollar; tarqatma materiallar; texnik vositala(kompyuter, kodoskop, elektron darslik, elektron materiallar)ning mavjudligi.

## ***2.2. Darslik va elektron darslik hamda o‘quv va elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish metodikasi.***

**Tayanch tushunchalar:** *pedagogik faoliyat, loyihalash, ma’ruza, seminar, Power Point, Arial, Verdana, metodologik talab, mantiqiy yaxlitlik, amaliyotga bog‘lash, tabaqalash, o‘quvchilarning yoshiga xos xususiyatlari.*

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ixtisoslikka oid o‘quv materialini o‘zlashtirganligi, ularda shakllangan ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunonchi, talabalarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda o‘qituvchidan mutaxassislik o‘quv predmetlaridan nafaqat asoslaridan chuqur bilim berishi, balki ularni o‘zlashtirish darajasini haqqoniy nazorat qilib, baholash ham talab etiladi. Chunki, nazorat qilish bu faqat ta’lim-tarbiya natijalarini tahlil qilish emas, balki butun jarayonning turli bosqichlarida talabalar bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Bundan tashqari oliy musiqa ta’limida nazorat qilib baholash o‘ziga xos ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholashning ta’limiy ahamiyati, bunda o‘quv materialining o‘zlashtirilganligi haqida o‘qituvchi ham, talaba ham ijobiy yoki salbiy tavsifga ega bo‘ladi ya’ni, o‘qituvchi uchun talaba nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o‘quv materiali yaxshi o‘zlashtirilganu, qaysi biri hali yaxshi o‘zlashtirilmaganligi yoki umuman o‘zlashtirilmaganligi ma’lum bo‘ladi. Bu esa talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari o‘qituvchi o‘zining faoliyatiga tanqidiy baho beradi. Olingan natijalarga ko‘ra faoliyatiga qo‘shimchalar kiritadi, talabalarga nisbatan qanday yondashish metodlari va vositalarini tezroq topib oladi. Bu o‘qituvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko‘rishi va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishi uchun negiz hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, talabaga ham o‘quv materialida u nimani yaxshi, nimani qoniqarli va nimani yomon o‘zlashtirgani tushunarli bo‘ladi. Bilimlarni nazorat qilmasdan talaba o‘z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to‘g‘ri baholashga qodir emas, ba‘zan unga guyo o‘quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, lekin nazorat chog‘ida esa o‘zlashtirishdagi kamchiliklar, yaxshi tushunmaganligi ma‘lum bo‘lib qoladi. Nazorat qilib baholash jarayonida talabaning o‘rganilayotgan o‘quv materialini tushunish, esda saqlab qolish, mohiyatini anglab olish darajasini aniqlaydi. Talabaning faolligi orqali bilimlari, ko‘nikma va malakalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Nazorat qilish hamda baholashning tarbiyaviy ahamiyati talabalarda o‘qishga, o‘z yutuqlari va kamchiliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, muammolarni yechish istagi tug‘iladi. Talabaga nisbatan berilgan baho unda hamisha talaba sifatida, shaxs sifatida o‘ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Talabada o‘ziga nisbatan irodalilik, jamoaviylik, o‘zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlar shakllanadi. Bu, ayniqsa, o‘smirlar orasida katta ahamiyatga egadir. Har bir ta‘lim beruvchi bilimlarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyatini to‘g‘ri qo‘llay olsa, har bir talaba oldida, o‘qitish sohasida qulay istiqbollarni ochib beradi.

Ilm fan, texnikaning rivojlanib borishi, ishlab chiqarishning o‘sishi barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta‘lim-tarbiya sohasida ham aniq, qat‘iy mezonlar asosida tarbiyalanuvchining bilim va faoliyat darajasini baholash lozimligini kun tartibiga olib chiqdi.

XX asrning ikkinchi yarmidan ijtimoiy taraqqiyotning mislsiz tezligi talabalarining bilimi, ko‘nikma va malakalari darajalarini qisqa vaqt oralig‘ida xolis baholash imkonini beruvchi, nazoratning yangi usulini yaratishni taqoza etdi. Ana shu zaruratning samarasi sifatida talabaning bilim darajasini aniqlovchi reyting tizimi ishlab chiqildi.

### **“Musiqqa ta‘lim” fanidan elektron o‘quv qo‘llanma yaratishga qo‘yiladigan pedagogik talablar (*Power Point ma‘ruza taqdimotida*)**

Power Point ma‘ruzani tetiklashtiruvchi juda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Grafikalar, fotosur‘atlar, jadvallar, grafalar, audio va video kliplarni taqdim etish va veb saytlarni ko‘rsatish osondir. To‘g‘ri foydalanilsa, bu qiziqishni paydo qilishi va boy va keng ma‘lumot olishni ta‘minlashi mumkin.

Baxtga qarshi, Power Point taqdimotlari ko‘p hollarda bu xususiyatni jalb etmaydi va ma‘ruzachi eski yo‘llarda o‘rganib qolgan ko‘p sonli zerikarli slaydlarni varaqlash bilan tugaydi. Bu slaydlar hech qanday muammo bo‘lmasligi kerak; bu fikrlar foydali boshlash nuqtasi bo‘lishi mumkin, agarda qo‘shimcha ma‘lumot va illyustratsiyadan foydalanilgan bo‘lsa. Asosiy fikrlar boshqa materiallar bilan boyitilgan slaydlar hayratlanardi darajada yaxshi ishlashi mumkin. Biroq faqat

asosiy fikr ko'rsatilgan slaydlardan vaqtga mos kelmaydigan darajada ko'p miqdorda foydalanish, talaba qiziqishini sekinlashtiradi. Bu yanada kuchayadi, agar ma'ruzachi bu gaplarni o'qish uchun qo'shimcha vaqt sarflasa. Nima ma'ruzachiga talabalar o'zi o'qib olmasdan o'rganishiga yordam beradi? Bundan tashqari Sveller (2007) miya faoliyatida olib borgan izlanishlaridan shuni xulosa qildiki, taqdimotda ko'rsatilgan so'zlarni o'qib berish bilimni qabul qilish darajasini pasaytiradi. Shu sababli, u shunday deb aytgan (the Times? 18-aprel 2007 yil), PowerPoint bu halokatdir va ishdan chiqishi kerak. Biroq bu tanqid asosli bo'lardi, agar juda kam hollarda to'g'ri bo'lgan slayddagi matn shunchaki o'qib berilsa.

### **Power Pointdan ma'ruzada samarali foydalanish:**

- Slaydlar sonini minimumga tushuring. Slaydlardan taqdimotni kuchaytirish va boyitish uchun foydalaning; agar slaydlar qo'shimcha hech narsa bermasa, uni qo'shmang;

- Diqqatni buzuvchi qiyinlashtirilgan orqa fondan foydalanmang. Matn va fon o'rtasidagi ranglar muvozanatini saqlang

- Juda murakkab grafalardan foydalanmang

- Arial va Verdana kabi senserif shriftlaridan foydalaning

- Asosiy fikrni namoyon etish uchun faqat slaydli ma'ruzalardan qoching;

- Agar yordam bersa, murakkab g'oyalarning grafik holda tushuntirishni qurish uchun PowerPointda animatsiyadan foydalanishni inobatga oling.

- Raqamlashgan sur'atlardan, ovoz yoki video materiallardan taqdimot ichida mos bo'lsa foydalaning va hisobga oling;

- Material bo'yicha o'rganishga imkon beruvchi aktiv tugmalar yoki giperssilkalardan foydalaning. Savol-javob slaydlari da birgina tugmani bosish bilan boshqa slaydga etish va yana qaytib shu slaydga olib kelish uchun ayniqsa samaralidir.

### ***Power Point va matnlar***

Hozirda talabalar ma'ruzachilardan dars vaqtidagi taqdimot nusxasini mussasa veb sayti yoki VO'M (Vertual o'rganish muhiti orqali berishlarini so'rashadi. Bu holat ma'ruzachilar tomonidan talabalar qoralama matnlar yoki elektron tarzda kelmagan darslarining o'rnini to'ldirish uchun ishlatishadi deb tushuniladi. Haqiqat esa shundaki, agar ma'ruzaga qatnashish ularga PowerPoint usidan hech qanday qo'shimcha bermasa, haqiqatdan ham shunday deb o'ylashadi. Umumlashtirish va qiziqishni ko'tarish va talaba qatnashuvi kabi tomonlar ma'ruza sifatini oshiradi. Ma'ruzachi talabalarga shunchaki matnni olish ular bilim saviyasini oshirmasligini tushuntirishi va ularning ma'ruza o'qishga imkon berish juda muhimdir.

Yangi ma'ruzachi uchun har xil guruh talabalariga ma'ruza o'qish uchun juda muhim tajriba bo'lib hisoblanadi. Materialni shunchaki bilish yetarli emas. Ma'ruzachi ma'ruzani qiziqarli va e'tiborni tortadigan qilib, yaxshi tayyorgarlik ko'rishi va mos va mavzuli misollardan foydalanib mavzuni tushuntira olishi zarur. Ma'ruzani to'g'ri o'tish mahorat va vaqt talab qiladi. Talaba va hamkasblardan ma'ruza to'g'risida fikrlarini so'rash ma'ruza o'qish sifatini ko'rsatish uchun muhim omil hisoblanadi va Siz o'z amaliyotingizni kuchaytirishni xohlashingiz mumkin<sup>7</sup>.

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida fundamental bilimlardan iborat bo'lgan umumta'lim fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari, asosan, an'anaviy bosma shaklda tayyorlanadi. Hozirgi zamonaviy o'quv darsliklari ularning elektron variantlari hamda zarur bo'lgan dasturlarning diskleri bilan ilova qilinmoqda. Bu esa, o'z navbatida mashg'ulotlarni zamonaviy elektron texnik vositalardan unumli foydalanib tashkil qilishga qulay bo'lmoqda.

Bugungi kunda elektron o'quv adabiyotlarining to'rtta ko'rinishi mavjud:

1. O'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida.
2. O'quv materiallari ikki o'lchamli grafik shaklida.
3. Multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni uch o'lchamli grafik, ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal shaklida.
4. Taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini «ekran olami»da stereo nusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi<sup>2</sup>

**Bunday elektron o'quv adabiyotlarini yaratishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:**

1. Yangi axborot-ta'lim metodini shakllantirish, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini, ya'ni sifati va unumdorligini oshirish;

2. Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari – elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash va elektron kutubxonalarni tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarni amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirish.

Yuqoridagi fikrlar asosida oldingi paragraflarda qayd etilgan texnik chizmachilikfanidan qiyin o'zlashtiriladigan mavzularni kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'qitish bo'yicha elektron qo'llanma yaratish orqali tadqiqotimiz maqsadi amalga oshirildi. Elektron qo'llanmaning mazmuni mutaxassis olimlarning tadqiqotlari (A.Abduqodirov, U.Yuldashev, N.Tayloqov va

<sup>2</sup> A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education, published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016, chapter V: Lecturing to large groups, Ann Morton, 59-71p.

boshqalar) natijalariga tayangan holda, chizmachilik ta'limi muammolari va uni bartaraf etish yo'llariga asoslanib ishlab chiqildi.

Elektron qo'llanma quyidagi talablarga rioya qilingan holda yaratildi:

**Metodologik talab** – qo'llanma matnidan uning illyustratsiyasigacha bo'lgan barcha o'quv materiallari fan mazmuniga muvofiq tuzildi.

**Mantiqiy yaxlitlik** – qo'llanmada mavzular mazmuni muayyan tizim shaklida ugallanib, har bir mavzu bitta mashg'ulot uchun mo'ljallandi.

**Amaliyotga bog'lash** – har bir tushuncha, qoida va chizmalar ilmiy va amaliy asoslanib, ularni amaliyotda qaysi sohalarda ko'proq qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bilan boyitildi.

**Tabaqalash** – o'quvchilar salohiyatini va qiziqishdagi muqarrar tafovutlarni nazarda tutib, matnni bir necha darajada tabaqalab berildi. (Buning uchun mayda harf, quyuq va rangli yozuv singari usullar qo'llanilgan)

**O'quvchilarning yoshiga xos xususiyatlarini nazarda tutish** – matn ham, ko'rsatmalar ham o'quv faniga xos mazmunda bo'lib, ular o'quvchi tafakkurini zo'riqtirmasdan, pedagogik, psixologik va fiziologik meyorlarga rioya qilingan holda tuzildi.

3-ko'rinishdagi elektron qo'llanmalar multimedia mahsuloti bo'lib, ularda grafik amallar videolavhalar va animatsiyalar yordamida namoyish etilishi bilan kasb-hunar ta'limida o'quvchilarning samarali bilim olishlarini ta'minlab, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi (2.1-rasm).

### 2.3. Musiqa fanlarini o'qitishda “Ustoz-shogird” an'analari

**Tayanch iboralar:** *ustoz-shogird, an'ana va qadriyatlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, mustaqil ta'lim, audio, munosabat, murabbiy.*

Musiqa san'ati sohasidagi munosabatlar, ta'lim shakllari, turlari, uslub va vositalari, musiqa va uning tarbiyaviy ahamiyatga oid ta'limotlari, g'oyalari va qarashlaridan zamonaviy talqinda foydalanish ustoz-shogird an'analari ifoda etish masalalari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi Sharq mutaffakkirlari, shuningdek pedagog olimlar D.Kabalevskiy, N.Vetlugina, rus musiqashunos olimlari V.Uspenskiy, YE.Romanovskaya, E.Gliyer, T.Solomonovalar tomonidan o'rganilgan.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o'qitish va tarbiyalash mazmuniga milliy qadriyat va an'analarni singdirish, ularni ilg'or g'oyalar bilan boyitishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.



Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan bebaho ma'naviy meros, unitilgan qadriyatlarni qayta tiklash, milliy o'zlikni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy an'ana va qadriyatlar qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida o'qituvchi-ustoz faoliyati bo'lajak yuqori malakali mutahassis kadrlarni tayyorlashda nafaqat fan asoslari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda, balki auditoriyadan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda, ularning iqtidori, qiziqishi va intilishlarini inobatga olgan holda ilmiytadqiqot ishlariga jalb etishda, ularda yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda "ustoz-shogird" an'analaridan foydalanish ehtiyojga aylanib bormoqda.

Darhaqiqat yuqori malakali muttassis kadrlar tayyorlashda "ustoz-shogird" tizimining ahamiyati beqiyosdir. Mazkur tizim asosida zamonaviy milliy kadrlarni yetishtirishda ustozning shogird bilan, yaqin, samimiy, oqilona munosabatlarini jonlantirishga qaratilayotgan jiddiy e'tibor diqqatga sazovor.

Shuningdek, mazkur tizim bu ikki ta'lim subyektlari orasida nafaqat ilm-fan ma'lumotlarini o'zaro almashish, balki yuqoridagi xulosa: qaysi fazilat va sifatlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borishga kirishish, olingan bilimlarni amaliyotga qanday tadbiiq etish, qaysi maqsad va g'oyalarni amaliyotiga yo'naltirish va boshqa shu kabi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari bilan uyg'unlikda olib borishni ko'zda tutmoqda.

Demak, bugungi "ustoz-shogird" munosabatlarida ustoz – murabbiylarning o'z izdoshlariga faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmasligiga ahamiyat qaratilayotgani o'ziga xos va muhim xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Xatto, tizimning tashkil etilishi va uni yanada takomillashtirishga berilayotgan e'tibor markazida – shogirdlarning ma'naviy kamolotiga g'amhurlik qiltinayotgani alohida fenomendir. Global munosabatlar rivojlanib, turli ahborotlar bilan bir qatorda, rang-barang g'oya va qarashlar shiddat bilan ommaviylashib borayotgan hozirgi davrda, yoshlar ma'naviy kamolotiga e'tibor berish har qachongidan dolzarblashib, "ustoz-shogird" tizimi oldiga ham bir qator vazifalarni qo'yishi tabiiydir.

Har qanday yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularning chuqur bilimga ega bo'lishi – ma'naviy kamolot bilan uyg'unlikda olib borishni taqozo etadi. Yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, ijod qilish, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mavjudligi bilan "ustoz-shogird" an'analari katta ahamiyat kasb etadi.

"Ustoz-shogird" an'alarining yana bir xarakterli jihati shundaki, unda shogirdning o'z imkoniyatlariga ishonch, vaziyatni to'g'ri baholash hamda irodaviy sifatleri shakllanadi, eng asosiysi uning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida bo'ladi. Ustozning eng buyuk burchi – yurt ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, aql-idrokli, fahm-farosatli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat.

Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun avvalo uning o'zi kasbiy salohiyatli, ma'naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog'lom fikrga ega bo'lmog'i lozim.

Qadimdan "ustoz-shogird" an'analari ustoz nafaqat shogirdiga yo'lyo'riq, ko'rsatma beribgina qolmay, o'z navbatida ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o'zidan keyin ish tajribasi, bilim va mahoratini avlodnavlodga o'tishga imkoniyat yaratgan.

"Ustoz-shogird" munosabatlari muayyan dastur, reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Bu borada shogird bilan olib boriladigan ish shakllarida ustoz quyidagilarga rioya qilishi lozim:

- shogirdga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ularni zamon talablariga, jamiyat qonun-qoidalariga mos bilimlar bilan qurollantirish;
- yagona maqsad sari intilishga, ishning natijasini ko'ra bilishga o'rgatish;
- shogirdning ruhiyati, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish va o'z o'rnida talabchan bo'lish; - o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga odatlantirish;
- muvaffaqiyatni ko'zlagan holda olg'a odimlash;
- ijobiy qaytuvchan aloqani o'rnatish; - tarbiyada turli xil usullardan foydalanishga e'tibor qaratish; - tarbiya jarayonida ustozning har tomonlama: ma'naviy, axloqiy, kasbiy jihatdan namuna bo'lishi;
- burch, mas'uliyat, javobgarlik hissini shakllantirib borish va hokazo.

Yuqori malakali har tomonlama yetuk mutahassis kadrlar tayyorlashga qaratilgan "ustoz-shogird" an'analari quyidagi pedagogik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- onglilik va faollik, ya'ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning o'ziga xos jihatlari, mohiyatini ongli tarzda to'liq anglab yetish, uning istiqboli va ravnaqida faollik bilan harakat qilish;
- ta'lim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bog'liqligini inobatga olish; - o'qitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlari izchillik bilan belgilab qo'yilgan aniq mantiqiy tartibga ega bo'lishi;
- ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik; - shogirdning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- mutaqqillikka, ijodiy izlanishga yo'naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'liqligini hisobga olish;

Yuqorida ta'kidlanganidek ta'lim-tarbiya tizimida "ustoz-shogird" munosabatlari shakllantirish va rivojlantirish ta'lim-tarbiyaning yanada samaradorligini oshishiga yordam beradi, yuqori malakali shogird tayyorlashdan ko'zlangan samarani beradi. Pedagogik ta'limot g'oyalari ko'ra amaliy ko'nikma va malakalar bevosita mashqlantirish, ya'ni muayyan faoliyatni amalga bevosita bajarish orqali shakllanadi.

“Ustoz-shogird” an’anasi esa talaba-yoshlarda bevosita ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, mavjud iqtidorlarini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi holatlar yoshlarni nafaqat mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashish, balki o‘zgalar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan g‘ururlanish kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasida sharqona, qadimiy ajdodlar urf-odatlarini, an’analarini, axloq-odob qoidalariga amal qilishda xalqimizning milliy tarbiya tizimidan unumli foydalanishga alohida e’tibor berish va bu borada ustozlar o‘z kuchi, aql-zakovotini ayamasliklari lozim. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, hozirgi keng qamrovli demokratik islohotlar muhitida kelajak avlodning vatan ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘sha oladigan yuqori malakali kadrlar qilib tarbiyalash davr talabiga aylandi. Bu borada ta’lim-tarbiya tizimida “Ustoz-shogird” an’analarini imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida ustozlarni bo‘lg‘usi mutaxassislariga biriktirish amaliyotida izlanishlar orqali tasdiqlanishicha, barcha professor-o‘qituvchilar jamoasining uchdan bir qismi yoshlar bilan shug‘ullanish vazifasini o‘z zimmasiga olgan va o‘zlarining mutaxassislik, ilmiy-tadqiqot ko‘nikma, malakalarini yoshlarga tatbiq qilib, ularni kasbiy mahoratlarini shakllantirishda o‘zlariga xos yordam bermoqdalar.

Lekin, shunday fikrni ham aytib o‘tish lozimki, ya’ni bu harakat buyruqlar orqali tasdiqlanishiga qadar ham yoshlar faoliyatlari ustidan nazorat qilish, ularga otalik qilish masalalari juda qadim zamonlardan boshlab turli shakllarda; sinf rahbari, qoloq talabalarga otalik qilish, tajriba almashish kabi ko‘rinishlarda rivojlanib kelgan.

Ustoz-shogirdlik harakati otadik staj ma’nosida maxsus ma’rifiy xujjatlarga ko‘ra 1964 yildan ishlab chiqish muassasalarida boshlangan.<sup>1</sup> Ustoz-shogirdlik xarakati doirasidan chetdan qolgan professor-o‘qituvchilar (asosan yosh o‘qituvchilar) o‘zlariga taklif qilingan ijtimoiy topshiriqlar orqali talaba-yoshlar faoliyatlariga otaliq qilganlar.

Demak, shu mazmunga xos topshiriqlarni hech qanday qarshilik qilmasdan mamnuniyat bilan bajarganlar. Bizni tadqiqot ishimizga bir qator professoro‘qituvchilarning ustozlik faoliyatlari haqida ma’lum bir tajriba almashish manbalari haqida so‘z borar ekan, ular qanday ustozlik darajasiga erishganliklari haqidagi savolga (misol sifatida so‘rov-anketalariga javob qilganlarining to‘rt dan bir qismi) “Bu meni burchim va vazifamga kiradi”- deb javob qilganlar. Shu bilan birgalikda 10% ga yaqini, ularni shunday tasdiqlaganliklarini ifodalaydilar. So‘rov-anketa (ilovalarga qarang) materiallarining tahlili ko‘rsatishicha, aynan, ana shu borada “Shunday tasdiqlanganliklarini” ifodalovchi guruhdan ba’zi birlari bunday

vazifadan voz kechishni bildiradilar. Lekin, ulardan bir qismi esa qo‘shimcha maosh olayotganliklari bois davom qildirish zarurligini ko‘rsatadilar. Demak, bunday ustozlarning faoliyatlari ham faqat moddiy tomonni ko‘zlagan ekan, ularda hech qanday ochiq ko‘ngillik asosida shogirdlar bilan ishlash ishtiyoqi kam ekanligi tasdiqlanadi. Lekin, shunisi quvonarliki, 90% professor-o‘qituvchilar ustozshogird an‘analariga pedagogik-psixologik mazmunda to‘g‘ri yondashmoqdalar. O‘zlarining mutaxassislik tajribalarini yoshlar ongiga ham nazariy ham amaliy jihatdan singdirmoqdalar. Shu o‘rinda shuni ham ta‘kidlab o‘tish zarurki, professoro‘qituvchilardan ustoz-shogirdlik faoliyatlariga kirishishlari uchun oladigan bunday ijtimoiy mukammal yuklamani ixtiyoriy ravishda o‘z zimmasiga olishga rozilik berishda majburiylikka yo‘l qo‘ymaslik pedagogika-psixologiya fanlarining mazmuniga kiradi. Lekin, har bir professor-o‘qituvchilarning bu yo‘nalishdagi faoliyati, asosiy mutaxassislik faoliyatining, ajralmas bir qismi hisoblanadi. Chunki bu jarayon ham pedagogik faoliyat sifatida bo‘lg‘usi har tomonlama yetuk mutaxassisni tayyorlashga ixtiyoriy yondashish, o‘z o‘rniga muvofiq kadrlarni tayyorlash jarayoni demakdir.

Bo‘lg‘usi mutaxassislar bilan ishlashga tayyorlik, ularga o‘zini shaxsiy xissiyoti orqali talabani yoqtirish yoki yoqtirmasligiga qaramasdan har tomonlama yordam berish-bu har bir professor-o‘qituvchining jamiyat olididagi burchi hisoblanadi. Bunday faoliyat natijasi esa faol professor-o‘qituvchining o‘ziga xos tasnifnomasidir. Shu bilan birgalikda ustoz-shogirdlik faoliyati bilan shug‘illanuvchi professor-o‘qituvchi psixologiyasini turli psixologik hususiyatlarga ega bo‘lgan yoshlar bilan ishlab bilishga moslashish zarurligini shakllantiradi. Ustoz-shogirdlik an‘analariga sodiqlik har ikkala tomonda mavjud bo‘lgan ba‘zi bir salbiy xususiyatlarini faoliyatlarida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni o‘z vaqtida ko‘rish va bartaraf qila bilash imkoniyatlarini yaratadi. Chunki ba‘zan ustozlarga o‘z harakatlari bilan oliygoh tartibintizomidan chekka chiquvchi, darsga loqaydlik bilan qarovchi, tizimli ravishda darsga kech qolib keluvchi, ijtimoiy – foydali mehnatga salbiy munosabatda bo‘luvchi talabalar birlitilib qoladi. Bunday talabalarga albatta birinchi navbatda o‘zlariga xos tarbiyaviy ta‘sir vositalari, uslublarini topish juda qiyin. Bu jarayonda ustoz-shogirdlarning bir-birlarga nisbatan psixologik mos bo‘lmasligi ishda halaqit berishi mumkin.

Ustoz ularga e‘tibor qilmasdan yaxshi so‘z, muloqot, munosabat jarayonini ochiq ko‘ngillik bilan o‘rnata olishi orqali shogird ko‘ngliga mos vazifasini bajarishdan uni asta-sekinlik bilan ta‘lim-tarbiya jarayoniga yetaklab bora bilishi kerak. Bunday holat esa o‘z navbatida o‘zaro ijtimoiy – psixologik munosabatlarini yaxshilanishiga olib keladi. Bu jarayonga yorqin misol sifatida ustozlik faoliyatini boshlanish bosqichi mazmunini keltirish mumkin. Ustoz o‘z ishini shogirdlar guruxi bilan tanishishdan boshladi. O‘ziga berkitilgan har bir talaba bilan yakka tartibda

tanishib ularni nimaga qobiliyatli ekanligini bilib oldi. O‘zi mutaxassis sifatida ma’ruza o‘qiydigan talabalar jamoasidan M. Ismli talaba ham unga shogird sifatida tanlanganini bilib oldi. U shogirdi M.ning salbiy hatti-harakatlarini oldindan bilar edi. Shuning uchun ham unga shogirdlarning birinchi yig‘ilishida shu guruhga sardorlik qilish vazifasini topshirdi va M. bilan birgalikda shogirdlar bilan ishlash reja, tadbirlarni tuzib chiqadilar. M. faol shogird sifatida jamoada kundan-kunga o‘z faoliyatini faqat ijobiy tomonga faollashtirdi. Uni rahbarligida ustoz-shogirdlik guruxi venetkasi (umumiy tasviriy ifodalangan surat) ishlab chiqildi, o‘zi esa barcha fanlardan “yaxshi” va “a’lo” baholarga o‘qiy boshladi. Bunday misollarni boshqa ustoz-shogird guruhlaridan ham keltirish mumkin.

Shuni ham izohlab o‘tish zarurki, ya’ni ustoz-shogirdlik muddati davomiyligi qancha muddatni o‘z ichiga olishi kerakligini aniqlab olish zarurmi yoki ustoz-shogirdlik butun bir umrga davom etadimi degan masalalar bir qator kengashlar, majlislar, o‘zaro suhbatlar mavzusiga aylangan. Bunday o‘zbekona urf-odatlariga tayangan holda bu masala ustoz-shogirdlarni o‘zaro bir umrga barcha ishlarda hamdard, hamnafas bo‘lishlari kerakligini tasdiqlaydi. Endi ustoz-shogirdlik munosabatlari faqat o‘quv faoliyatlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida qaraladigan bo‘lsa, shogirdlarni oliygohni muvaffaqiyatli tugallashlari, ish o‘rinlariga ega bo‘lishlari, o‘zlarini ham ustozlik faoliyatlarini boshlashlari bilan bu jarayon yakunlanadi. Shunday bo‘lsa ham ustozshogirdlik bu butun umrlik jarayon deb qaraladi. Chunki har bir ustoz o‘z faoliyatini turlicha qabul qiladi, turlicha uslub. vositalar orqali amalga oshiradi va o‘z qobiliyati doirasida ta’lim-tarbiyaviy ta’sir doirasini belgilaydi.

Shogirdlarga ta’lim-tarbiyaviy ta’sir kuchini o‘tkazishda ustozlar turlicha insonlar taqdirleri bilan duch keladilar (shogirdlarning har biri o‘zining karakteri, qobiliyati, intilishi kabilar bilan bir-biridan ajralib turadilar). Aynan ana shunday xususiyatlar ustoz-shogirdlar tomonidan tushunarli bo‘lmasa ustozlik faoliyatlari shu sabablarga ko‘ra buzilishga kelib taqaladi. Bulardan tashqari ustoz-shogirdlik faoliyatlarini buzilishiga mavjud bo‘lgan sabablar: boshqa fakultet yoki bo‘limga o‘tish, armiya safiga chaqirilishi, akademik ta’til olish kabilar ham sabab bo‘lishi mumkin.

Shunday fikrlar qatorida, ustozlik muddatini qachon tugullangan deb hisoblash zarur deb topish, ko‘pgina anketa savollariga shogirdlar bergan javoblardan izlash kerak.

Albatta, ustozlik ishini ko‘rsatkichlari va sifatiga ko‘ra muddati tugallanishi ustozlarning o‘z shogirdlari faoliyatlarini keyingi muddatlarda nazorat qilish jarayonini cheklab qo‘ymaydi. Lekin, bu faoliyat muloqot va munosabat mazmunini yanada yuqori darajada amalga oshiriladi. Chunki ko‘pgina shogirdlarni o‘zlari

ustozlik vazifasini bajara boshlaydalar va kattalarning maslahatlariga muhtojlik sezadilar.

Natijada ustoz-shogirdlik an'analari orqali avlodlar hamkorlik faoliyatlari amalga oshadi.

### ***Ustozlarning ijtimoiy faolligi***

Barkamol avlodni tarbiyalash sharoitida barcha jamoalarining ijtimoiy faolligi asosiy o'rinni egallaydi. Ishlab chiqarish kuchlarining tez sur'at ijtimoiy o'sib borishi, nafaqat ishchi kuchlarining ijtimoiy faoliyat shakllari, balki ularni tarbiyalab shakllantiruvchi ustozlarning ham ijtimoiy faolligi bilan bog'liq.

Ijtimoiy faollik turlari asosan har bir kishining mustaqil faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq. Ustozlarning ijtimoiy faolligi o'z-o'zini boshqarish, turli yo'nalishlarda do'stona raqobatbardoshlikni o'rnatish harakatdagi ilmiy-uslubiy kengashlarda ishtirok etish, ilmiy tahlil hay'atlarida shogirdlar faolligini tasdiqlash, shogirdlar bilan hamkorlikdagi faoliyatlarni rejalashtirish kabi shakllarda ifodalanadi.

Ustoz-shogirdlar faolligi hamma vaqtlarda ham ko'p qirrali jarayon hisoblangan va mutaxassislik bilim, ko'nikma, malakalarida ifodalangan. Ustoz-shogirdlarning ijtimoiy faolligi jamiyat qiziqishlari asosida faoliyat olib borishlarida ifodalanadi. Natijada har ikkala shaxsning ongli faoliyat qilishi, ijtimoiy topshiriqlarni bajarishlari kabilar asosida ichki ehtiyojlarni qondirish, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllantirish amalga oshiriladi. Ijtimoiy faoliyat qilish ma'nosi keng doirada insonni ijtimoiy manba sifatidagi faoliyatida ifodalanadi. Tor ma'noda ijtimoiy faoliyat bu moddiy va ma'naviy boylik yoritishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatdan tashkil topgan faoliyat xisoblanadi. Aynan shu yo'nalishda ustozlar ijtimoiy faoliyatlar yo'nalishlari tasdiqlanadi. Ular o'zlarining asosiy kasbiy, mutaxassislik vazifalaridan tashqari bo'lg'usi kasb egalari yoshlarni tezlik bilan kasbiy- mutaxassislik faoliyatlariga kirishish imkoniyatlarini yaratadi.

Jamiyat barkamol avlodni shakllantirish harakati har bir shaxsni, aynan, bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlashda ularni ijtimoiy faolligini amalga oshirish, o'zlarini ijtimoiy mohiyatlarini tushunishlarini ta'minlash kabi ko'p qirrali vazifalarni bajarishga o'rgatish bilan bog'liq.

Natijada, ustoz-shogirdlik an'anasi ongli va ko'pgina maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan jarayonga aylanib boradi.

Ularning faoliyatlari orqali, saflari kengayib boradi, har bir talaba o'zligini turli yo'nalishlarda namoyon qiladi. Shunday qilib, bir vaqtni o'zida talaba ommasini faolligi asosida, har bir talabaning ijtimoiy, ilmiy-uslubiy qiyofasi shakllanadi.

Talaba shaxsini ijtimoiy faolligi ustozlar nazorati asosida tizimli talab qilinadigan ehtiyojga aylanadi. Ustozlar faoliyatini tasniflash uchun risoladanavbatdagi ko‘rsatkichlardan foydalanilgan:

- ustoz tomonidan qabul qilingan majburiyat va vazifalarni ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanganligi (lekin, maxsus buyruq asosida tanlanganligi);
- uning ijtimoiy topshiriqlar hajmi;
- tarbiyaviy ta’sirini shogirdlarga o‘tkaza bilish tasnifi ( ish staji, yoshi, jinsi, lavozimi, ilmiy darajasi);
- turli musoboqalarda, shogirdlar bilan anjumanlarda ishtiroki kabilar.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha erishilgan ko‘rsatkichlarga ayrim-ayrim to‘xtalib o‘tamiz.

Oliy ta’lim tizimida ustozlarni bo‘lg‘usi mutaxassislarga biriktirish amaliyotida izlanishlar orqali tasdiqlanishicha, barcha professor-o‘qituvchilar jamoasining uchdan bir qismi yoshlar bilan shug‘ullanish vazifasini o‘z zimmasiga olgan va o‘zlarining mutaxassislik, ilmiy-tadqiqot ko‘nikma, malakalarini yoshlarga tadbiq qilib, ularni kasbiy mahoratlarini shakllantirishda o‘zlariga xos yordam bermoqdalar.

Lekin, shunday fikrni ham aytib o‘tish lozimki, ya’ni bu harakat buyruqlar orqali tasdiqlanishiga qadar ham yoshlar faoliyatlari ustidan nazorat qilish, ularga otalik qilish masalalari juda qadim zamonlardan boshlab turli shakllarda; sinf rahbari, qoloq talabalarga otalik qilish, tajriba almashish kabi ko‘rinishlarda rivojlanib kelgan.

Ustoz-shogirdlik harakati otalik staj ma’nosida maxsus ma’rifiy xujjatlarga ko‘ra 1964 yildan ishlab chiqish muassasalarida boshlangan. Ustoz-shogirdlik harakati doirasidan chetdan qolgan professor-o‘qituvchilar (asosan yosh uqituvchilar) o‘zlariga taklif qilingan ijtimoiy topshiriqlar orqali talaba-yoshlar faoliyatlariga otaliq qilganlar. Demak, shu mazmunga xos topshiriqlarni hech qanday qarshilik qilmasdan mamnuniyat bilan bajarganlar. Bizni tadqiqot ishimizga bir qator professoro‘qituvchilarning ustozlik faoliyatlari haqida ma’lum bir tajriba almashish manbalari haqida so‘z borar ekan, ular qanday ustozlik darajasiga erishganliklari haqidagi savolga (misol sifatida so‘rov-anketalariga javob qilganlarining to‘rtidan bir qismi)

“Bu meni burchim va vazifamga kiradi”- deb javob qilganlar. Shu bilan birgalikda 10% ga yaqini, ularni shunday tasdiqlaganliklarini ifodalaydilar. So‘rov-anketa (ilovalarga qarang) materiallarining tahlili ko‘rsatishicha, aynan, ana shu borada “Shunday tasdiqlanganliklarini” ifodalovchi guruhdan ba’zi birlari bunday vazifadan voz kechishni bildiradilar. Lekin, ulardan bir qismi esa qo‘shimcha maosh olayotganliklari bois davom qildirish zarurligini ko‘rsatadilar. Demak, bunday ustozlarning faoliyatlari ham faqat moddiy tomonni ko‘zlagan ekan, ularda hech

qanday ochiq ko'ngillik asosida shogirdlar bilan ishlash ishtiyoqi kam ekanligi tasdiqlanadi. Lekin, shunisi quvonarliki, 90% professor-o'qituvchilar ustozshogird an'alariga pedagogik-psixologik mazmunda to'g'ri yondashmoqdalar. O'zlarining mutaxassislik tajribalarini yoshlar ongiga ham nazariy ham amaliy jihatdan singdirmoqdalar. Shu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, professoro'qituvchilardan ustoz-shogirdlik faoliyatlariga kirishishlari uchun oladigan bunday ijtimoiy mukammal yuklamani ixtiyoriy ravishda o'z zimmasiga olishga rozilik berishda majburiylikka yo'l qo'ymaslik pedagogika-psixologiya fanlarining mazmuniga kiradi.

#### **2.4. Musiqa san'ati fanlarini o'qitishda ta'lim metodlari va vositalari**

*Tayanch iboralar: uzluksiz ta'lim, ta'lim tuzilmasi, ta'lim xususiyatlari, musiqa san'ati, pedagogik texnologiyalar, uslubiyot, uslub, vosita.*

Musiqa san'ati sohasidagi munosabatlar, ta'lim shakllari, turlari, uslub va vositalari, musiqa va uning tarbiyaviy ahamiyatga oid ta'limotlari, g'oyalari va qarashlaridan zamonaviy talqinda foydalanish ustoz-shogird an'alarini ifoda etish masalalari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi Sharq mutaffakkirlari, shuningdek pedagog olimlar D.Kabalevskiy, N.Vetlugina, rus musiqashunos olimlari V.Uspenskiy, YE.Romanovskaya, E.Gliyer, T.Solomonovlar tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o'qitish va tarbiyalash mazmuniga milliy qadriyat va an'analarni singdirish, ularni ilg'or g'oyalar bilan boyitishga yo'naltirilgan keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan bebaho ma'naviy meros, unitilgan qadriyatlarni qayta tiklash, milliy o'zlikni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Milliy an'ana va qadriyatlar qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida o'qituvchi-ustoz faoliyati bo'lajak yuqori malakali mutahassis kadrlarni tayyorlashda nafaqat fan asoslari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda, balki auditoriyadan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda, ularning iqtidori, qiziqishi va intilishlarini inobatga olgan holda ilmiytadqiqot ishlariga jalb etishda, ularda yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda "ustoz-shogird" an'alaridan foydalanish ehtiyojga aylanib bormoqda. 30 Darhaqiqat yuqori malakali muttassis kadrlar tayyorlashda "ustozshogird" tizimining ahamiyati beqiyosdir.

Mazkur tizim asosida zamonaviy milliy kadrlarni yetishtirishda ustozning shogird bilan, yaqin, samimiy, oqilona munosabatlarini jonlantirishga qaratilayotgan



jiddiy e'tibor diqqatga sazovor. Shuningdek, mazkur tizim bu ikki ta'lim subyektlari orasida nafaqat ilm-fan ma'lumotlarini o'zaro almashish, balki yuqoridagi xulosa: qaysi fazilat va sifatlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borishga kirishish, olingan bilimlarni amaliyotga qanday tadbiq etish, qaysi maqsad va g'oyalar amaliyotiga yo'naltirish va boshqa shu kabi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari bilan uyg'unlikda olib borishni ko'zda tutmoqda. Demak, bugungi "ustoz-shogird" munosabatlarida ustoz – murabbiylarning o'z izdoshlariga faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmasligiga ahamiyat qaratilayotgani o'ziga xos va muhim xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Xatto, tizimning tashkil etilishi va uni yanada takomillashtirishga berilayotgan e'tibor markazida – shogirdlarning ma'naviy kamolotiga g'amhurlik qiltinayotgani alohida fenomendir. Global munosabatlar rivojlanib, turli ahborotlar bilan bir qatorda, rang-barang g'oya va qarashlar shiddat bilan ommaviylashib borayotgan hozirgi davrda, yoshlar ma'naviy kamolotiga e'tibor berish har qachongidan dolzarblashib, "ustoz-shogird" tizimi oldiga ham bir qator vazifalarni qo'yishi tabiiydir. Har qanday yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularning chuqur bilimga ega bo'lishi – ma'naviy kamolot bilan uyg'unlikda olib borishni taqozo etadi. Yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, ijod qilish, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mavjudligi bilan "ustoz-shogird" an'analari katta ahamiyat kasb etadi.

"Ustoz-shogird" an'alarining yana bir xarakterli jihati shundaki, unda shogirdning o'z imkoniyatlariga ishonch, vaziyatni to'g'ri baholash hamda irodaviy sifatleri shakllanadi, eng asosiysi uning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida bo'ladi. Ustozning eng buyuk burchi – yurt ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, aql-idrokli, fahm-farosatli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat. Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun avvalo uning o'zi kasbiy salohiyatli, ma'naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog'lom fikrga ega bo'lmog'i lozim. Qadimdan "ustoz-shogird" an'alarida ustoz nafaqat shogirdiga yo'lyo'riq, ko'rsatma beribgina qolmay, o'z navbatida ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o'zidan keyin ish tajribasi, bilim va mahoratini avloddanavlodga o'tishiga imkoniyat yaratgan.

"Ustoz-shogird" munosabatlari muayyan dastur, reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Bu borada shogird bilan olib boriladigan ish shakllarida ustoz quyidagilarga rioya qilishi lozim: - shogirdga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ularni zamon talablariga, jamiyat qonun-qoidalariga mos bilimlar bilan qurollantirish; - yagona maqsad sari intilishga, ishning natijasini ko'ra bilishga o'rgatish; 31 - shogirdning ruhiyati, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish va o'z o'rnida talabchan bo'lish; - o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga odatlantirish; - muvaffaqiyatni ko'zlagan holda olg'a odimlash; - ijobiy qaytuvchan aloqani

oʻrnatish; - tarbiyada turli xil usullardan foydalanishga eʼtibor qaratish; - tarbiya jarayonida ustozning har tomonlama: maʼnaviy, axloqiy, kasbiy jihatdan namuna boʻlishi; - burch, masʼuliyat, javobgarlik hissini shakllantirib borish va hokazo. Yuqori malakali har tomonlama yetuk mutahassis kadrlar tayyorlashga qaratilgan “ustoz-shogird” anʼanalarida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi: - onglilik va faollik, yaʼni egallayotgan u yoki bu faoliyatning oʻziga xos jihatlari, mohiyatini ongli tarzda toʻliq anglab yetish, uning istiqboli va ravnaqida faollik bilan harakat qilish; - taʼlim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bogʻliqligini inobatga olish; - oʻqitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlari izchillik bilan belgilab qoʻyilgan aniq mantiqiy tartibga ega boʻlishi; - ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik; - shogirdning yoshi va oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish; - mutaqillikka, ijodiy izlanishga yoʻnaltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bogʻliqligini hisobga olish; Yuqorida taʼkidlanganidek taʼlim-tarbiya tizimida “ustoz-shogird” munosabatlarin shakllantirish va rivojlantirish taʼlim-tarbiyaning yanada samaradorligini oshishiga yordam beradi, yuqori malakali shogird tayyorlashdan koʻzlangan samarani beradi.

Pedagogik taʼlimot gʻoyalariga koʻra amaliy koʻnikma va malakalar bevosita mashqlantirish, yaʼni muayyan faoliyatni amalga bevosita bajarish orqali shakllanadi. “Ustoz-shogird” anʼanasi esa talaba-yoshlarda bevosita ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, mavjud iqtidorlarini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi holatlar yoshlarni nafaqat mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga masʼuliyat bilan yondashish, balki oʻzgalar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan gʻururlanish kabi maʼnaviy-axloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasida sharqona, qadimiy ajdodlar urf-odatlarini, anʼanalari, axloq-odob qoidalariga amal qilishda xalqimizning milliy tarbiya tizimidan unumli foydalanishga alohida eʼtibor berish va bu borada ustozlar oʻz kuchi, aql-zakovotini ayamaskliklari lozim. Yuqoridagi fikrlardan koʻrinadiki, hozirgi keng qamrovli demokratik islohotlar muhitida kelajak avlodning vatan ravnaqiga oʻz hissalarini qoʻsha oladigan yuqori malakali kadrlar qilib tarbiyalash davr talabiga aylandi. Bu borada taʼlim-tarbiya tizimida “Ustoz-shogird” anʼanalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### **1-amaliy mashg‘ulot: Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va modul asosida darslarni tashkil etish uslubiyoti. (2 soat)**

***Ishdan maqsad:*** Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va modul asosida darslarni tashkil etish.

***Maqsadning qo‘yilishi:*** Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. kompyuter texnologiyalariga asoslangan o‘qitish metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi sifatida. Darslik va elektron darslikdan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish metodlari. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish.

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish, faoliyatning eng muxim qoidalarini anglay bilish.

2. Har bir talabaga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual dasturini tuzish.

3. Talabalarning yoshlik va shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda, ularga nisbatan individual munosabatni oshirish.

B) Tashkilotchilik malakalari:

1. Talabalar orasidagi faol bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idrok qilish.

2. Talabalarning turli xildagi jamoa, individual faoliyatini uyushtira bilish va ularni ijtimoiy faolligini bilish.

3. Talabalarga berilgan ijtimoiy topshiriqlar berilishi yuzasidan nazorat o‘rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.

4. Ota-onalar, keng jamoatchilik o‘rtasidagi ishlarni bilish. talabalarga talablar qo‘yish metodlari quyidagilar dan iborat: talabaning axloq qoidalarini, barcha predmet buyicha bilimlarni baholash, o‘qitishdagi burch va ma’suliyatni bilish, mashq qilish, talabalarni mehnat qilishga o‘rgatishdan iboratdir.

Ustoz oldiga qo‘yilgan talablar:

1. Faoliyatning aniq maqsadlarini shogird xis qilsin.

2. Faoliyatni amalga oshirish shogird tashabbusi va ijodiy faollikka bog‘liq. Bunda ishni taqsimlash, rejalash, xisobga olish, natija chiqarish kabilarni shogirdlarning o‘zlariga xavola qilish lozim.

3. Ustoz faoliyatga pedagogik raxnamolik qiladi, shogirdlarning ijodiy odatlarini shakllantiradi.

4. Faoliyat jarayonida har bir shogird ijrochilik malakasiga ega bo'ladi.

5. Ish natijasini muhokama qilish, shogirdlarni rag'batlantirish.

Ustoz shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, so'zlash madaniyatiga, yuksak odob axloqli bulishi kerak. Shogirdlar bilan o'tkaziladigan suxbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda, ustoz quyidagi madaniyat qirralariga ega bo'lishi kerak.

Ruxiyat madaniyati - shogirdning ma'naviy extiyojlariga to'g'ri ta'sir ko'rsatish.

Mahorat madaniyati - har bir tadbirni zo'r quvonch va qalbdan tashkil qilish.

Siyosiy madaniyat - davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo'lish.

Ma'naviy madaniyat - shogirdlarning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilish.

Kasbiy qobiliyatning asosiy turlari. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi, pedagogik mahoratga erishish uchun ustozda quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i lozim.

1. Bilish qobiliyati - fanni tegishli soxalariga oid qobiliyatidir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan ustoz fanni o'quv kursi xajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani soxasidagi kashfiyotlarni xamisha kuzatib boradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati - o'kuv materialini talabalarga tushunarli kilib bayon etish, talabalarda mustakil ravishda faol fikrlashga qiziqtirish.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati. Talaba shaxsni va uning vaqtinchalik ruxiy xolatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'lik bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

4. Nutq qobiliyati - nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - talabalar jamoasini uyushtirishi, talabalarni muhim vazifalarni xal etishga ruxlantirish nazarda tutiladi.

6. Obro' orttira olish qobiliyati - bevosita ematsional, irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda tarbiya berish ma'suliyatini xis etish, o'zini xaq ekanligiga ishontirish.

7. Kommunikativ - to'g'ri muomala qila olish, o'zaro munosabat o'rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z xarakterlarining natijaviyligini ta'minlash.

### **Professionalizm kategoriyalari:**

- *ijodiy individuallik;*
- *o‘zining o‘sish va takomillashish jarayoni;*
- *o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.*

### **O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:**

- *intellektual - ijodiy tashabbus;*
- *bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;*
- *ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;*
  - *axborotlarga tashnalik, muammolardagi g‘ayri odatiylikka va yangilikka bo‘lgan his-tuyg‘u, professionalizm, bilishga bo‘lgan chanqoqlik*
  - *(N.V.Vishnekova).*

J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- *fikrining ravonligi;*
- *fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;*
- *o‘ziga xoslik (originallik);*
- *qiziquvchanlik;*
- *farazlar yaratish qobiliyati;*
- *xayol qila olish, fantastlik (fantaziY.)*

### **O‘qituvchi faoliyatidagi kreativligi bosqichlari:**

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an‘anasi mavjudligi aytiladi:

- *obyektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;*
- *shaxslararo muloqot ma‘nosini tushunish refleksiyasi;*

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, shogird malakali kadr bo‘lib shakllanar ekan, raqobat usullarining har xil turli shakllarini o‘zlashtirishi lozim. Bu o‘z navbatida ta‘lim jarayoni samaradorligini ta‘minlab boradi.

## **2- amaliy mashg'ulot: Musiqa fanlarini o'qitishda "Ustoz-shogird" an'analari. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi. (4 soat)**

*Ishdan maqsad:* Musiqa fanlarini o'qitishda "Ustoz-shogird" an'analari asosida darslarni tashkil etish.

*Maqsadning qo'yilishi:* Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi sifatida. Darslik va elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish metodlari. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinni foydalanish.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ixtisoslikka oid o'quv materialini o'zlashtirganligi, ularda shakllangan ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunonchi, talabalarda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda o'qituvchidan mutaxassislik o'quv predmetlaridan nafaqat asoslaridan chuqur bilim berishi, balki ularni o'zlashtirish darajasini haqqoniy nazorat qilib, baholash ham talab etiladi. Chunki, nazorat qilish bu faqat ta'lim-tarbiya natijalarini tahlil qilish emas, balki butun jarayonning turli bosqichlarida talabalar bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Bundan tashqari oliy musiqa ta'limida nazorat qilib baholash o'ziga xos ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholashning ta'limiy ahamiyati, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida o'qituvchi ham, talaba ham ijobiy yoki salbiy tavsifga ega bo'ladi. YA'ni, o'qituvchi uchun talaba nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o'quv materialini yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali yaxshi o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari o'qituvchi o'zining faoliyatiga tanqidiy baho beradi. Olingan natijalarga ko'ra faoliyatiga qo'shimchalar kiritadi, talabalarga nisbatan qanday yondashish metodlari va vositalarini tezroq topib oladi. Bu o'qituvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi uchun negiz hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, talabaga ham o'quv materialida u nimani yaxshi, nimani qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani tushunarli bo'ladi. Bilimlarni nazorat qilmasdan talaba o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas, ba'zan unga guyo o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, lekin

nazorat chogʻida esa oʻzlashtirishdagi kamchiliklar, yaxshi tushunmaganligi maʼlum boʻlib qoladi. Nazorat qilib baholash jarayonida talabani oʻrganilayotgan oʻquv materialini tushunish, esda saqlab qolish, mohiyatini anglab olish darajasini aniqlaydi. Talabani faolligi orqali bilimlari, koʻnikma va malakalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega boʻladi.

Nazorat qilish hamda baholashning tarbiyaviy ahamiyati talabalarda oʻqishga, oʻz yutuqlari va kamchiliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, muammolarni yechish istagi tugʻiladi. Talabaga nisbatan berilgan baho unda hamisha talaba sifatida, shaxs sifatida oʻziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Talabada oʻziga nisbatan irodalilik, jamoaviylik, oʻzaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlar shakllanadi. Bu, ayniqsa, oʻsmirlar orasida katta ahamiyatga egadir. Har bir taʼlim beruvchi bilimlarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyatini toʻgʻri qoʻllay olsa, har bir talaba oldida, oʻqitish sohasida qulay istiqbollarni ochib beradi.

Ilm fan, texnikaning rivojlanib borishi, ishlab chiqarishning oʻsishi barcha sohalarda boʻlgani kabi taʼlim-tarbiya sohasida ham aniq, qatʼiy mezonlar asosida tarbiyalanuvchining bilim va faoliyat darajasini baholash lozimligini kun tartibiga olib chiqdi.

XX asrning ikkinchi yarmidan ijtimoiy taraqqiyotning mislsiz tezligi talabalarning bilimi, koʻnikma va malakalari darajalarini qisqa vaqt oraligʻida xolis baholash imkonini beruvchi, nazoratning yangi usulini yaratishni taqozo etdi. Ana shu zaruratning samarasi sifatida talabani bilim darajasini aniqlovchi reyting tizimi ishlab chiqildi.

Amaliy mashgʻulotni bajarishda quyidagi keyslardan foydalaniladi.

### 1-keys

Musiqa maktabi tarbiyalanuvchisi Dildora 12 yoshda. Qizning ota-onasi qizi uchun fortepiano sotib olib bergan. Uyda fortepiano ijrochiligi bilan qoʻshimcha tarzda Dildoraning buvisi shugʻullanar edi. Dildora ijrochilik sohasida yutuqlarga erisha boshladi. Maktab konsertlarida yakka ijrochi sifatida ishtirok eta boshladi.

Dildora tarbiyalanadigan guruhda Munira degan qiz ham tarbiyalanadi. Lekin ular sira ham kelisha olmaydilar. Munira – chin yetim qiz. Dildoraning erishayotgan yutuqlar Muniraning gʻashiga tegar, uning bahilligini oshirar edi. Kundan kunga Munira Dildorani yomon koʻrib ketar, har koʻrganida biror bahona topib, mazax qilar edi. Ehtimol shu sabab boʻlsa kerak, kattalarning yoki tarbiyachilarning yoʻqligida ular shu darajada urishib ketishadiki, qizlarni ajratib olish juda ham qiyin boʻladi.



**SAVOL:**

1. Mazkur mojaroli vaziyatni qanday yo‘l va usul bilan xal qilish mumkin?
2. Bu tariqa ruhiy jarohatli xolatlarni vujudga kelishining oldini olish mumkinmi? Agar “ha” bo‘lsa, qanday qilib?

**2-keys**

Bir necha yil avval musiqa maktabiga boshqa muassasadan 10 yashar Yulduz ismli qizni o‘tkazadilar. Juda chiroyli, shiringina, sochlari jingalak, dutorchi qizcha. Avvalgi o‘qigan musiqa maktabi o‘qituvchisi mehribonlik bilan gapirar, har bir erishgan yutuqlaridan xursand bo‘lib, rag‘batlantirar edi. Yangi musiqa maktabi o‘qituvchisi talabchan va qattiqqo‘l bo‘lib, bergan topshiriqlari yuzasidan ko‘proq tanbex berar edi. Yulduzning ota-onasi o‘qituvchining xatti-harakatini tushunmay, o‘qituvchini jaxldor deb o‘ylab, darhol uni musiqa maktabidan chiqarib oldilar. Yarim yil davomida ijrochilik sohasida anchagina yutuqlarga erishdi, o‘qituvchisining talabchanligi natijasida ijro texnikasini o‘sganligi sezilib turar edi. Qizchaning qarshiligiga qaramay, ota-onasi musiqa maktabiga yubormay qo‘ydi. Qizcha hatto nima bo‘lganini ham tushunib ulgurmadi. U juda og‘ir ahvolda edi va boshdan o‘tkazganlarining oqibati uning xulqida uzoq vaqt o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. U go‘yoki kattalardan alamzada, butun dunyoga ishonchsizlik nigohi bilan boqardi. Ota-onasining samimiy mehrlil munosabati Yulduzda shubha uyg‘otar edi.

**SAVOL:**

1. Ushbu vaziyatda Yulduzning ikki xil sharoitdagi xulqi keltiriladi. Yulduzning yangi sharoitga moslashish davridagi xulqi xususiyatlarining kelib chiqishi hamda keyinchalik musiqa maktabidan ketganidan xulqi sabablarini tushuntirib bering.
2. Ushbu vaziyatni oldini olish, ya’ni Yulduzning yangi sharoitga, qattiq talabchanlikka moslashib ketishi va umuman musiqa maktabiga qaytarilishi uchun oilaga qanday yordam tashkillashtirilish mumkin?

**3-keys**

Rustanning otasi otalik huquqidan mahrum etilgan. Uning onasi esa 3 yil oldin mehnat migratsiyasi sababli chet elga ketganicha xali-xanuz qaytib kelmagan. Rustam musiqa maktabida rubob cholg‘u ijrochiligi mashg‘ulotlariga qatnaydi. Oxirgi vaqtlarda musiqa maktabidan qochib ketadigan va uzoq vaqt daydib keladigan odat chiqardi. Xulqida ham salbiy o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Uning salbiy xulq-atvori guruhdagi bolalarga ham ta’sir ko‘rsata boshladi. Rustam

aslida musiqa maktabidan chiqib, ko'chada topgan o'rtoqlari bilan kley xidlab keladi. Bu odatini guruhdagi o'rtoqlariga ham o'rgata boshladi.

Savol:

1. Sizning dastlabki harakatlaringiz...
2. Bolani tarbiyalashda qanday tarbiya usullaridan foydalanasiz?

#### 4-keys

8 yashar Irina ota-onasining ixtiyoriga ko'ra musiqa maktabiga fortepiano cholg'u ijrochiligiga qatnay boshladi. Irining cholg'u ijrochiligiga qiziqishi yo'q, ko'proq rasm chizishga qiziqadi. Lekin eshitish qobiliyati yaxshi, ritmni yaxshi xis qiladi va musiqiy xotirasi ham yaxshi. Ota-onasiga bildirmagan holda, fortepiano mashg'ulotlariga kirmay qo'ydi.

Savol:

1. Irining fortepiano ijrochiligiga qiziqtirish maqsadidagi sizning harakat rejangiz...
2. Qizning oilasi bilan birgalikda kasbga yo'naltirishning qanday usullarini bilasiz?

#### 5-keys

Azizani musiqa maktabiga 13 yoshdaligida olib kelishgan. U shu yoshigacha musiqa bilan shug'ullanmagan. Musiqa san'ati bilan kasbiy shug'ullanmaganligi natijasida texnik rivojlanishda orqada qolgan.

Uning ota-onasi Azizaning dutor cholg'usini o'zlashtirishini juda xoxlashgani sababli, tezroq biror asarni ijro etib berishini talab qilishar edi. Aziza esa, xali ijro shtrixlari va gammalardan nariga o'tmas edi. Aziza bo'sh qoldi deguncha, biror xalq kuyini chalishga xarakat qilar, lekin buning uddasidan chiqmas edi. Ota-onasi Azizani musiqa maktabiga borishini taqiqlab qo'yishdi.

Lekin Aziza musiqa maktabiga yashirincha boradigan bo'ldi. U musiqa maktabidagi yashirin hayot bilan yashay boshlaydi. Ota-onasi bilgandan keyin esa, katta janjalga sabab bo'ldi.

Savol:

1. Azizaning xatti-xarakatini qanday baxolaysiz?
2. Mana shunday vaziyatlarda, musiqa o'qituvchisining vazifalari nimadan iborat. Sizning harakat rejangiz.

#### 6-keys

Po‘lat musiqa maktabiga kelganidan avval odob-axloqliedi, keyinchalik kattalarga taqlid sifatida sigaret chakar va ko‘chalarda to‘polonchilik qiliqlarini qilar edi. To‘ylarga borib ancha-muncha mablag‘ topardi. Daydib yurganligi sababli uni ichki ishlar xodimlari ota-onasiga va maktabiga xat yubordilar. Lekin uyida va maktabida qanchalik yaxshi munosabatda bo‘lishmasin, Po‘lat ko‘pincha u yerdan qochib ketishga harakat qilardi va musiqa maktabiga ketdim degan vaj bilan yana o‘sha eski hunarini davom ettirar edi. Ota-onasi musiqa maktabiga kelib, bolaning to‘ylarga borishida o‘qituvchisini ayblay boshladi.

SAVOL:

1. Bu vaziyatga nisbatan sizning munosabatingiz.
2. Ota-onasiga qanday munosabat bildirish va bu holatni oldini olish maqsadida qanday ishlar olib borilishi kerak?

### 7-keys

Odatda ko‘pincha musiqa maktabining bitiruvchilari kasb-xunar kolleji va litseylar musiqiy faoliyatga moslashishlarida ko‘pgina qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu: kasbiy musiqaning murakkab tuzilmasi; ijro uslublaridagi murakkablik; o‘quv jarayoni bilan bog‘liq vazifalarni bajarish; ustoz-o‘qituvchi bog‘liq masalalar; oilaviy muammolarni hal etish kabilar.

Kollej va litseylarda o‘qish mobaynida musiqa maktabining sobiq bitiruvchilari o‘z muammolarini yechishda yordam so‘rab yana musiqa maktabiga kelib murojaat etadilar. Shunday vaqtlar ham bo‘ladiki, berilgan asarlarni o‘zlashtirishda qiyinchilikka uchragan talaba yana musiqa maktabidagi o‘qituvchisi yoniga keladi. Musiqa o‘qituvchisi odamgarchilik nuqtai nazaridan o‘quvchisiga yordam beradi. Buning natijasida o‘quvchida kollej yoki litsey o‘qituvchisiga nisbatan salbiy munosabat yuzaga keladi.

Savol:

1. Kollej yoki litsey o‘qituvchisi sifatida bu vaziyatni qanday yo‘l bilan hal qilasiz?
2. Sizda tahsil olayotgan bolaga nisbatan sizning munosabatingiz qanday bo‘lishi kerak?
3. Bitiruvchi-o‘quvchilarning kollej hayotiga moslashishlariga yordam berish tizimini takomillashtirish maqsadidagi Sizning takliflaringiz?

### 8-keys

Kamer ansambli ijrochiligi bo‘yicha mashg‘ulotlarda fortepiano va skripka cholg‘ulari o‘quvchilari uchun repertuar tanlashingiz kerak. O‘quvchilarning

shaxsiy munosabatlari yaxshi emasligi sababli tanlagan asaringiz o'quvchilarning biriga yoqsa ikkinchisi ushbu asarni rad etadi (turli sabablarni ko'rsatgan holda).

Savol:

1. O'quvchilar tomonidan munosabatlariga ko'ra rad etib bo'lmaydigan asar tanlash mumkinmi?

2. Sizning o'quvchilar munosabatlarini o'zgartirishga yo'naltirilgan harakat rejangiz?

### 9-keys

To'yda 10 yoshli bolaning san'atkorlar uchun pul terib xizmat qilayotganini ko'rdingiz. Bolaning musiqa o'qituvchisi sifatida sizning dastlabki harakat rejangiz.

### 10-keys

10 yashar bola 6 yoshidan beri skripka cholg'u ijrochiligi bo'yicha "Musiqa va san'at maktabi" da o'qib kelmoqda. Bolaning ritmik koordinatsiyasi buzilgan. Sizning harakat rejangiz.

### 3- amaliy mashg'ulot: "Musiqa san'ati" fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. (4 soat)

**Ishdan maqsad:** Fanni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqish.

**Maqsadning qo'yilishi:** Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi sifatida. Darslik va elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish metodlari. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish.

**Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash uchun mashq.**

**Yo'riqnoma:**

1. Real hayotiy vaziyat aks etgan 1.1. - matni diqqat bilan o'qing (5 daqiqa davomida).

2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda quyidagi savollarga javob bering (5 daqiqa davomida):

- Mazkur vaziyatda bolaning qanday ehtiyojlari inobatga olinmagan?
- Bu voqeaning bu tarzda kechishining oldi olinishi mumkinmidi?

- Mazkur vaziyatning samarali tarzda oldini olish uchun kimlarning (yoki qaysi idora va organlarning) yordami jalb etilishi mumkin edi?
- Voqeaning rivojlanishi davomida maktab-internat xodimlari qanday ma'qul choralarni ko'rishlari lozim edi?

### **1.1. Real hayotiy vaziyat.**

Bugungi kundagi ...-musiqa maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi Xasanov Farrux 14 yoshda. U 11 yoshida onasi tomonidan muassasaga olib keltirilgan edi.

Voqea quyidagicha kechgan: U ... tumani "...” fuqorolar uyushmasi hududida tug'ilgan Xasanov Farrux onasi Xasanova Fotima bilan birgalikda yashab kelmoqda edi. Dadasi bilan onasi Farrux 7 yoshida ajralib ketishgan. Onasi Xasanova Fotima Farrux 10 yoshga yetganida yangi oila – yangi turmush quradi. Oilaviy xayot boshlarida xayot yaxshi ketayotgandek edi biroq, kunlar o'tishi bilan oiladagi yetishmovchiliklar, ikir-chikirlar janjallarga olib kela boshladi. Uyda bo'layotgan kelishmovchiliklar, o'gay otaning onaga nisbatan munosabati, Farruxga qilayotgan muomalasi uning xulqiga jiddiy ta'sir ko'rsata bordi. Farrux darslarga tayyorlanmas, musiqa maktabiga bormaslik odatlarini chiqara boshladi. Farrux ko'chadagi bekorchi bolalar xayotiga qo'shila boshladi. Qo'li egrilikka odat qilib, yomon yo'llarga kira boshladi.

Ushbu sabablar oilada jiddiy janjallarga olib kelib parokandalik boshlandi. Oxir oqibat yangi oilani saqlash niyatida 11 yashar Farruxning onasi Xasanova Fotima o'z farzandini ... tumanidagi ...-sonli kam ta'minlangan oila farzandalariga mo'ljallangan maktab-internatga xujjatlar tayyorlab olib keladi. Farrux maktab-internat xayotiga asta-sekin ko'nika bordi. Ona Farruxni dastlabki kunlarida har hafta kelib xabar olib ketgan bo'lsa, keyinchalik umuman o'z farzandidan xabar olmay qo'yadi. Hafta so'ngida barcha o'quvchilar o'z uylariga ketsada, Farrux maktab-internatda qolar, uyga onasi olib ketmas, xatto ta'til paytlari ham yaqinlari e'tiborisiz muassasada qolib ketar edi. Ushbu voqealardan ta'sirlangan maktab-internat direktori Farruxga oilaviy sharoit bilan tanishtirish, oilaviy mexr ko'rsatish uchun o'z uyiga olib ketdi. Biroq Farrux ushbu oilada eski qiliqlarini esga olib, qo'li egrilik hunarini boshladi. Bir necha bor buyum, pul o'g'irlashga tushdi. Bir oyga ham bormagan mazkur oilaviy muhit bilan tanishish jarayoni uy egalarida Farrux haqida salbiy fikr va munosabatning paydo bo'lishi natijasida uni yana muassasaga qaytarish niyatini vujudga keltirdi. Demak, Farrux yana maktab-internat hayotiga qaytarildi.

Maktab-internat Farruxga har tamonlama yordam berishga harakat qilar edi. Qishki, yozgi kiyim-bosh, o'quv qurollari bilan bepul ta'minlandi. Farruxning xayotiga mazmun kiritish maqsadida maktab-internat joylashgan "...” maxallasi

fuqorosi Raxmonova Q. bolaga vasiylik qilish maqsadida o‘z oilasiga farzandlari davrasiga qo‘shdi. 3-4 oy ushbu oiladagi xayot uydagi buyumlarni yo‘qolishi, soat o‘g‘irlanishi bilan yakunlandi. Farrux yana, ya’ni ikkinchi bor maktab-internat xayotiga qaytarildi. Har qanday muomala bilan ham muassasa xodimlari Farruxni qo‘li egrilik odatidan qaytara olmadilar. Onasini bir necha bor maktab-internatga chaqirilishi natijasida ona o‘z farzandidan voz kechishi qarori bilan yakunlandi. U o‘z farzandidan voz kechishi haqidagi tilxatni yozib, osongina go‘yoki u uchun qiyin bo‘lib tuyulgan vaziyatdan qutuldi.

Farruxning xayotiga befarq bo‘lmagan yana bir Urushboyevlar oilasiga vasiylik tayinlanib, bolaning tarbiyasi bilan shug‘ullanish maqsadida o‘z oilasiga olib ketadi. Farrux bu oilada 1 yil yashab uy ishlariga ko‘maklasha boshladi, biroq darslarni yaxshi tayyorlamas, darslarni ko‘p qoldirar edi.

Yoshi ulg‘ayib qolgan Farrux endi ko‘cha xayoti uni qiziqtirar, ko‘proq vaqti ko‘chada o‘tar edi.

Farruxga mehr ko‘rsatish niyatidagi Urushboyevlar uni qattiq koyimas, ko‘nglini og‘ritmas edi. Ushbu xayot Farruxni dangasa, qo‘pol, ko‘cha bolasiga aylantira boshladi.

### ***1.2. Farruxning xulqi o‘zgarishiga ta’sir etgan ehtimoliy omillar.***

Pedagog-tarbiyachi Farruxga u bilan gaplashib ko‘rishni taklif etdi Farrux ham bunga rozi bo‘ldi. Farrux maktab-internatdagi ishlarini, uydagi ishlari kechishining yaxshi emasligini tasdiqlaydi. Pedagog-tarbiyachi uydagi axvol qandayligini so‘raydi. Farrux quyidagicha javob beradi: “Yaxshi shekilli”. Pedagog-tarbiyachi Farruxning tovushida allaqanday g‘amginlikni sezadi. Mutaxassis nima uchun u o‘g‘irlikka rujo‘ qo‘yganligi haqida o‘ylay boshlaydi. U Farruxning maktabdagi xulqini va o‘g‘irlik bilan bog‘liq voqeaning sababini oydinlashtiradi. Pedagog-tarbiyachi Farrux o‘z uyidagi vaziyatdan, ya’ni otasi ularni tashlab ketganidan tashvishda ekanligini, o‘qituvchi unga o‘z meyorida ta’lim bera olmasligini aniqlaydi. U dars mobaynida diqqatini meyorida jamlay olmaydi. Buning ustiga boshqalarga xam xalaqit beradi. Shuningdek pedagog-tarbiyachi jabr ko‘rgan kishilarning o‘z narsalarini o‘g‘irlatishiga yo‘l qo‘yib bermasligini ham biladi. Farrux kattalarning iliq munosabati, yaxshi mehrli muomalasiga muxtojdir. Farruxning bugungi kundagi xulqi, odatlari shakllanishiga ko‘p narsa ta’sir etgan.

***Birinchi***dan, o‘z biologik otasining tashlab ketishi. Bu holat har qanday farzandda “KERAK EMASLIK” tuyg‘usini, befarqlik, qadr-qimmatsizlik kabi xislarni uyg‘otadi.

***Ikkinchi***dan, onaning bolaga berayotgan e’tiborini to’satdan boshqa bir va bola uchun begona bo‘lgan obyekt, ya’ni erkakka taqsimlashi. Albatta, mazkur oilaviy vaziyatda ona yangi turmush o‘rtog‘ining talablariga javob berish hamda

maishiy-xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanish barobarida, ehtimol bolaga yetarli e‘tibor va alohida vaqt ajrata olmaganidir. U bilan tarbiyaviy ta‘sirli muomala o‘rnata olmaganidir. Aynan muomala, munosabat, iliq mehrga to‘ymaganlik va e‘tibor ostidan qolish kabi kamchiliklar bolada qahri qattqlik, gapga tushunmaslik, “bezbetlilik”, gap qaytarish, o‘z vaqtini kerak bo‘lmagan ishlar bilan o‘tkazish kabi odatlarning shakllanishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin.

**Uchinchidan**, onaning butkul bolani esdan chiqarishi. Birinchi va ikkinchi sanab o‘tgan sabablarimizdan qattiq ranjigan va o‘zida o‘z oilasiga nisbatan xissizlikni shakllantirib borayotgan Farrux uchun mazkur ayriqliq uning haqiqatda ham hech kimga KERAK EMASlik fikrini mustahkamlanishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin.

**To‘rtinchidan**. Har qandan inson yaqin kishiga nisbatan ehtiyojni xis qiladi. O‘z yaqinlarisiz qolgan Farrux endilikda boshqa tengdosh bolalaridan ajralib qolish holatiga tushgan bo‘lishi mumkin. Chunki guruhdosh tengdosh o‘rtoqlari har hafta o‘z oilasiga, o‘z uyiga oshiqadilar. Doimo o‘z yaqinlari haqida yaxshi so‘zlarni aytib, bo‘lgan voqealarni xavas bilan xotirleydilar. Bu esa bolada ichki o‘kinish, boshqalardan kamlik degan xisning paydo bo‘lishi hamda boshqalarga o‘xshamaslik degan fikrning shakllanishiga turtki bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

**Beshinchidan**, bolada sportga nisbatan qiziqishi kabi boshqa yashirin qobiliyat yoki moyilliklari o‘z vaqtida aniqlanib, rivojlantirish uchun maxsus pedagogik sharoit yaratilmagan bo‘lishi mumkin. Natijada bolada o‘zgalar nigohida va o‘zi haqidagi fikrlarida faqat YOMON degan so‘z va munosabatlar aylanib yuravergan. Boladagi kuchsiz tomonlar go‘yoki u ega bo‘lgan yagona xususiyatdek talqin etilgan. Aslida esa agarda bolaning kuchli tomonlari muhokama markaziga olib chiqilib, kuchli xususiyatlari e‘tiborga olinib, shu vositasida uning qadr-qimmatini ko‘tarilib, unga nisbatan ishonch bildirilib, yuqori baho va iliq mehri munosabatlar bilan uning boshqacha ekanligi, barchaga kerakligi, juda yaxshi bolaligi, hayotda nimalargadir erisha olishi mumkinligi, boshqalarga ham mehr bera olishi mumkinligi ta‘kidlanganda edi, ehtimol korreksion-rivojlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatish imkoni bo‘lgan bo‘lar edi.

Lekin Farruxga nisbatan munosabat qurilayotganda yuqoridagilar inobatga olinmagan edi.

Unda kerakli ehtiyojlar qondirilmagan. Masalan, agar ehtiyojlar nazariyasiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, u holda quyidagi ehtiyojlarning qondirilmaganligining guvohi bo‘lamiz.

1. Fiziologik ehtiyojlar – oziq ovqat, kiyim-kechakka nisbatan ehtiyoj va boshqa zarur moddiy ashyolar.

2. Xavfsizlikka ehtiyoj – o‘z qadr qimmatiga ega bo‘lish, kimgadir keraklilik, kimningdir himoyasida bo‘lish xissi.

3. Mansublikka ega bo'lish ehtiyoji – ma'lum bir insonning yaqini sifatida o'zini xis qilishi, ota-onadan ayriliq tufayli, o'z mansubligini xis qilmaslik xolati, mexrli va e'tiborli munosabatning maqjud emasligi, o'z real "Men"ining shakllantirilmaganligi.

4. Ijtimoiy, ma'naviy-ahloqiy ehtiyojlar – doimiy yaqin do'stlarga ega bo'lish, yagona muqim yashash joyiga ega bo'lish, ota va onaning bola ko'ngli va ichki dunyosiga nisbatan hurmati, bolaning takrorlanmas va o'ziga xos xususiyatga egaligi, uning ichki aqliy va xissiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga nisbatan ta'lim-tarbiyaviy ta'sir; bolada ma'naviyat va ahloqiy hayot tarzi, do'stona munosabat, yaqinlarni va umuman insonlarni qadrlash kabi tushunchalarni shakllantirish, hunar egallash, ahloqiy dunyoqarashga ega bo'lish va umuman bola ega bo'lgan barcha kuchli tomonlarning qo'llab-quvvatlanishi va h.z.



**V. KO'CHMA MASHG'ULOT  
MATERIALLARI**

## V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### **1-ko‘chma mashg‘ulot: Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta’lim jarayoniga tadbiiq etish masalalari. (2 soat)**

Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta’lim jarayoniga tadbiiq etish masalalari. Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar bilan ijro san’ati sohasi tashkilotiga tashrif buyuriladi. Muayyan tashkilotning xarajatlari va daromadlari o’rganiladi. Olingan ma’lumotlarga qarab, tinglovchilar narx belgilash maqsad va strategiyalari taklifini birgalikda ishlab chiqadilar.

### **2- ko‘chma mashg‘ulot: Musiqa fanlarini o‘qitishda “Ustoz-shogird” an’analari. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi. (4 soat)**

Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar orasida nomoddiy madaniy merosning sohalari bo‘linadi va har bitta tinglovchi musiqa fanlarini o‘qitishda “Ustoz-shogird” an’analari o‘rganish maqsadida soha yetuk faoliyat olib borgan tashkilotga tashrif buyuradilar. Tinglovchilar tomonidan sohaga oid bo‘lib, qamrab olinmagan tur va janrlar muhokama etiladi va to‘ldiriladi.

#### ***“Ustoz-shogird” an’analari asosida darslarni tashkil etish.***

Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. kompyuter texnologiyalariga asoslangan o‘qitish metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi sifatida. Darslik va elektron darslikdan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish metodlari. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ixtisoslikka oid o‘quv materialini o‘zlashtirganligi, ularda shakllangan ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunonchi, talabalarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda o‘qituvchidan mutaxassislik o‘quv predmetlaridan nafaqat asoslaridan chuqur bilim berishi, balki ularni o‘zlashtirish darajasini haqqoniy nazorat qilib, baholash ham talab etiladi. Chunki, nazorat qilish bu faqat ta’lim-tarbiya natijalarini tahlil qilish emas, balki butun jarayonning turli bosqichlarida talabalar bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Bundan tashqari oliy musiqa ta’limida nazorat qilib baholash o‘ziga xos ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholashning ta'limiy ahamiyati, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida o'qituvchi ham, talaba ham ijobiy yoki salbiy tavsifga ega bo'ladi. YA'ni, o'qituvchi uchun talaba nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o'quv materiali yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali yaxshi o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, talabaga ham o'quv materialida u nimani yaxshi, nimani qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani tushunarli bo'ladi. Bilimlarni nazorat qilmasdan talaba o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas, ba'zan unga guyo o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, lekin nazorat chog'ida esa o'zlashtirishdagi kamchiliklar, yaxshi tushunmaganligi ma'lum bo'lib qoladi. Nazorat qilib baholash jarayonida talabaning o'rganilayotgan o'quv materialini tushunish, esda saqlab qolish, mohiyatini anglab olish darajasini aniqlaydi. Talabaning faolligi orqali bilimlari, ko'nikma va malakalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nazorat qilish hamda baholashning tarbiyaviy ahamiyati talabalarda o'qishga, o'z yutuqlari va kamchiliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, muammolarni yechish istagi tug'iladi. Talabaga nisbatan berilgan baho unda hamisha talaba sifatida, shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Talabada o'ziga nisbatan irodalilik, jamoaviylik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlar shakllanadi. Bu, ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir. Har bir ta'lim beruvchi bilimlarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri qo'llay olsa, har bir talaba oldida, o'qitish sohasida qulay istiqbollarni ochib beradi.

## VI. KEYSLAR BANKI

## VI. KEYSLAR BANKI

**1-keys.** Pedagogika bo'yicha yaratilgan adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularda —Ta'lim jarayoni tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

**Ta'lim jarayoni – bu:**

1. O'quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko'nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o'zlashtirilishini ta'minlash (o'qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2. O'quvchilar tomonidan BKMning o'zlashtirilishi (o'qishi)ni ta'minlovchi jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o'qitish va o'qitish – ta'limning o'zaro aloqador va o'zaro shartlangan tomonlaridir).

3. O'qituvchining o'quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o'zlashtirilishiga yo'naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o'zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o'quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta'minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4. O'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida BKMni o'zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

**Savollar:**

1. Ulardan qaysi biri ta'lim jarayonining mohiyatini to'la yoritadi?
2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

—Pedagogika faniga oid bir necha manbalar.

*Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:*

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil) ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

*Keysni yechish jarayoni:*

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

### **O‘qituvchining yechimi**

1. Mazmuniga ko‘ra barcha ta’riflar ham ta’lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, muayyan fan har bir kategoriya bo‘yicha o‘zining aniq terminologiyasiga ega bo‘lishi, tushunchalar voqea, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, obyekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.

2. Keltirilgan ta’riflar asosida tegishli jarayonga xos umumiy tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

### **2-keys.**

Birinchi sinfda o‘qiyotgan Dilshod she’rni ifodali o‘qib bergani uchun —besh baho oldi. O‘qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o‘zi yod olgan she’rni oyisiga ham o‘qib bermoqchi bo‘ldi. Ammo, oyisi Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o‘g‘liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o‘ynab kel!

Dilshod tushlik ham qilmay ko‘chaga chiqib ketdi.

### **Savollar:**

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta’sir o‘tkazadi.

### **Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:**

- Pedagogika va
- Psixologiyaga oid adabiyotlar.

#### Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil) ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

#### Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil) ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan tarbiya tamoyili (ikkita tamoyil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

#### O'qituvchining yechimi

1. Nihoyatda yoqimsiz vaziyat. Onasi Dilshodning maktabga qanday borib kelganligi bilan ham qiziqmadi.
2. Dilshodning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag'batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi, asta-sekin unda qo'rslik, befarqlik, o'z-o'zini past baholash, o'ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

#### 3-keys.

1. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakllarni aniqlash.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.

### **Tinglovchilar uchun metodik ko'rsatmalar**

1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini chuqur o'rganing.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalar aniqlang.

4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.

5. —Ko'zga zammal metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma'naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

#### Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.


2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil) ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.





## VII. GLOSSARIY

## VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Modulli texnologiyalar</b>	eng zamonaviy texnologiya bo‘lib, modul bloklaridan tashkil topgan axborotni tizimli ravishda qayta ishlash va tahlil qilishga, talabning mustaqil faoliyatiga asoslangan yaxlit jarayon.	Module technologies – the most contemporary technology, module consists of blocks it’s process of student’s self education which is based on analysis systematically process of information.
<b>Modul</b>	mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo‘lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat bo‘lgan birlikdir.	Module – has content and logical ending, produced by didactic way, interested in result, entry and exit test units.
<b>Modul dastur</b>	bir fan doirasidagi modul bloklarining yig‘indisi bo‘lib, erishish lozim bo‘lgan didaktik maqsad, qo‘llaniladigan usullar va vositalar yig‘indisidir.	Module curriculum-it in total collection of blocks of a particular area of a subject, and means and ways which are used to gain for didactic purpose.
<b>O‘quv moduli</b>	nisbatan mustaqil, mantiqiy yakunga ega bo‘lgan o‘quv kursining bo‘lagidir. U o‘quv-uslubiy ta’minotdan nazariy va amaliy qismlardan, topshiriq va joriy hamda yakuniy nazorat kabi qismlardan iborat	Curriculum module-comparatively independent, a part of a course which has logical ending. It comprises theoretical practical parts of curriculum, which have tasks, current and final tests.
<b>Tyuter</b>	(lot. <i>tutorem</i> – maslahatchi) faoliyati talabalarga o‘quv jarayoniga moslashish, vujudga keluvchi ayrim savollarga javob topishga yordamlashishga qaratilgan.	Tutor-(latin-tutorem-counsellor) activity is to facilitate solutions of some problems and adaptation of students to teaching process.

<b>Edvayzer</b>	(advisor - qadimgi fransuz so‘zi “avisen”, “o‘ylamoq” so‘zidan olingan) yakka holda diplom ishi, kurs ishini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqot olib borish, yakka dasturlarni ishlab chiqish jarayonida maslahatchidir.	Advisor (ancient French word “avisen ” which taken from the word,to think)-who of reseach or diploma and course activities
<b>Fasilitator</b>	(ingl. facilitator, lot. facilis — “yengil, qulay” degan ma’noni bildiradi) fasilitatorguruhlarda faoliyatni tashkil etishda ko‘maklashadi.	Facilitator-(inglish. Facilitator, latin facilis gives the meaning “light, convenient”) facilitator assists to form group activities.
<b>Moderator</b>	(lot. moderor — meyorlash tiraman, tekshiraman) qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, talabalarning qobiliyatlarni ochilishiga, bilish faoliyatini aktivlashtirishga yordam beradi.	Moderator-(Lat.moderor-normalization, check)checks activation of learning activity and forming of students abilities and abide accepted rules.
<b>Supervizor</b>	quyidagi to‘rt vazifani bajaradi: o‘qituvchi sifatida o‘rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifani bajaradi.	Supervisor-does 4tasks, teaches as a teacher facilitator,advisor and expert.
<b>Superviziya</b>	o‘zaro munosabatlar tizimi bo‘lib, supervizor tomonidan kasbiy faoliyatga oid boshqa mutaxassisga maslahatlar berishni ko‘zda tutadi.	Supervision-gives advice to other specialists on their professional, activities and interrelation system.
<b>Kredit (zachet birligi)</b>	o‘lchov birligi bo‘lib, talabaning auditoriyada va mustaqil o‘quv faoliyatini, baholaydi (o‘quv yuklamasini).	Kredit (standard units) it is a unit of dimension which is assissted independent curriculum activity of a student in the room.
<b>Reyting baholash tizimi</b>	joriy, modulli va semestr nazoratida talabaning bajargan o‘quv faoliyatini va egallagan bilimlari va shakllangan ko‘nikma,	Assessment system-it is point of system as the scorethe skills and knowledge of students which formed during the

	malalkalarini ballar ko‘rinishida baholash tizimi.	academic activity in current, module and semester.
<b>Reyting (reyting bahosi)</b>	talaba erishgan darajasini sifatini baholovchi ball tizimi.	GPA-score of system which learner’s obtained quality level the quality of level of knowledge assessment system.
<b>Kreativlik</b>	termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.	Creativness-appeared in the 60s America psychology and termin England to create new conception and form new abilities and qualities (characteristics)
<b>Kreativ ta’lim</b>	bu ta’lim oluvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga, takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, u ta’lim oluvchidagi yaratuvchanlik, bunyodkorlik qobiliyatlarini o‘stirishga xizmat qiladi.	Creative learning-this education is directed (trend) to perfection of development creative abilities of a learner and services to rise the abilities of creative ness and to produce something new or a work of art.
<b>Muammoli ta’lim</b>	ilmiy bilishni rivojlantirishga asoslangan ta’lim shakli bo‘lib, muammoli vaqtning ya’ni, jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat.	Problematic learning- it is based on to develop scientific learning,problematic time,it is a sitivation which appear between knowledge and ignorant in the process of development society.
<b>Transferancy</b>	bu ECTS (European Credit Transfer System) tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to‘siqsizkirishiga shart - sharoit yaratish.	Transferancy-ECTS(European Credit, Transfer System)- creation entry facilities for any person or organization to this system without any challenges.
<b>Sintez</b>	elementlardan, bo‘limlardan yangilikka ega bo‘lgan yaxlitlikni yaratish ko‘nikmasini anglatadi.	Syntheses-expresses totally creation skill which combined elements and units.
<b>Texnologiya</b>	yunoncha “tehne”, ya’ni “mahorat”, “san’at” va “logos” –	Technology-greek word which derived from “tehne e i”,

	<p>“fan”, degan so‘zlardan olingan. Uning yordamida manbalarda sifat o‘zgarishlar ro‘y beradi. Texnologiya - biror ishda, mahoratda, jarayonda, san’atda qo‘llaniladigan yo‘llar, uslublar to‘plamidir (talqinli lug‘at).</p>	<p>“competence”, “art” and “logos”-“science” with the help it quality changes of sources will happen. Technology-collection of using ways and methods in the competence, process and art.</p>
<p><b>Masofali ta’lim</b></p>	<p>masofada turib o‘quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta’lim muhiti yordamida ta’lim xizmatlari to‘plamidan iborat.</p>	<p>Distance learning it is collection of education services with the help of exchanging academic information based on special information environment from a distance</p>
<p><b>Blended learning</b></p>	<p>(aralash o‘qitish)</p>	<p>Blended learning (interference teaching)</p>
<p><b>Vebinar</b></p>	<p>ma’ruza, seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo‘lgan talabalar bilan audio video bilan jonli olib boriladi.</p>	<p>Vebinarreport seminar or conference.It is conducted with lively audio visual through the internet.</p>
<p><b>Evristik metodlar</b></p>	<p>evristik metodi o‘qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishni taqozo etadi. Buning natijasida o‘quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtira oladilar.</p>	<p>Evristik methods- it requires to organize high level of knowledge skills from students.As a result of it learners will obtain new knowledge independently.</p>

## VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli [Farmoni](#).



14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

### **SH. Maxsus adabiyotlar**

16. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniy obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

17. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

18. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

19. Gabitova A. Minimalizm v muzike T., 2007.

20. Ijrochiligi tarixi” T., «Musiq» 2007 y.

21. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

22. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

23. Kogoutek S. Texnika kompozitsii v muzike XX veka M., 2015.

24. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

25. Nazaykinskiy YE. Janr i stil v muzike – M, 2003.

26. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Y. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF ; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-00830\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-00830_2017.pdf).

27. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. [https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf).

28. Rajabov I. “Maqomlar”. «SAN,AT» nashriyoti T., 2006 y.

29. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

30. Uzbekskaya muzika na stike stoletiy (XX-XXI vv.), problemi (kollektivnaya monografiya). Tashkent, 2008.
31. Xaknazarov Z. – O dirijirovanii, T., 2011, izd-vo “Musiqqa”.
32. Andrew Paquette. An Introduction to Computer Graphics for Artists.- Springer Publishing Company, Incorporated, USA 2013.
33. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
34. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
35. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
36. Mitchell. H.Q. , Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
37. Mitchell. H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
38. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
39. The Techniques Orchestral Conducting by Ilya Musin. (Translated by Oleg Proskurnya), Edwin Mellen Press Ltd, 2014, USA.

#### **IV. Internet saytlar**

40. <http://edu.uz>
41. <http://prezedent.uz>
42. <http://madaniyat.uz>
43. <http://mygov.uz>
44. <http://lex.uz>
45. <http://bimm.uz>
46. <http://ziyonet.uz>
47. <http://www.dsmi.uz>
48. <http://www.artsait.ru>
49. <http://belcanto.ru/>
50. <http://music.edu.ru/catalog> .
51. <http://artyx.ru/>